

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

Tarix fakulteti

“Tarixshunoslik va Manbashunoslik” kafedrası

Yangiboyev G'iyos

BXSRda ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni matbuotda yoritilishi

**“5A220200-TARIX” ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish
uchun**

“Ish ko'rildi va himoya qilishga
ruxsat berildi”

Ilmiy rahbar_____

Rajabov Q.K

“ _____ ” _____ 201__ y.

Kafedra mudiri:_____

Taqrizchi: _____

Dots. B.E Ergashev

“ _____ ” _____ 201_y.

Samarqand-2013.

Mundarija:

Kirish.....	4-9
I bob. Buxoroda mahalliy matbuot vujudga kelishining tarixiy omillari.	
1.1 Buxoroda mahalliy matbuot vujudga kelishida jadidlar vaqtli matbuotlari ta'siri.....	10-12
1.2 “Buxoroyi sharif” va “Turon” gazetalarining tarixi.....	13-18
1.3. “Buxoro axbori” gazetasining umumiy tavsifi va mazmuni.....	19-31
II bob. BXSRdagi iqtisodiy va ijtimoiy masalalarning matbuot talqini.	
2.1 Matbuot sahifalarida BXSR iqtisodiyotiga oid ma'lumotlar.....	32-45
2.2. Gazetalar - BXSRdagi ijtimoiy masalalarni o'rganish manbasi.....	46-52
2.3. Matbuot sahifalarida BXSR harbiy masalalar va xotin-qizlar muammosining o'rganish manbasi.....	53-59
III bob. Matbuotda BXSRning maorif va madaniyati muammolari.	
3.1. “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarida maorif masalasining yoritilishi.....	60-66
3.2. Matbuotda BXSRning madaniyati masalalarining yoritilishi.....	67-71
Xulosa.....	72-74
Foydalanilgan adabiyotlar.....	75-78

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining milliy mustaqilligi xalqimizga nafaqat siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, balki ma’naviy sohada ham turli g‘oyaviy tazyiqlardan xoli bo‘lgan tom ma’nodagi ozodlik va erkinlikni berdi. Milliy istiqlol g‘oyasi va mafkurasini o‘zbek xalqi dunyoqarashiga singdirish muhim vazifadir. Binobarin, tarix shunchaki voqealar, sanalar tizimi emas, balki xar bir xalqning ma’naviy merosi hamdir. Mustaqillik yillaridagi milliy o‘zlikni anglashga bo‘lgan istak va intilish o‘zbek xalqining xaqqoniy tarixini yaratish masalasini kun tartibiga qo‘ydi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimoviing respublika etakchi tarixchi olimlari bilan 1998 yil iyun oyidagi uchrashuvi, Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix instituta faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 1998 yil 27 iyul qarori kabilar tarixni xolisona tadqiq, qilishda muhim bosqich bo‘ldi. I. Karimovning “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” asari esa tarixiy xotira va ma’naviy hayot masalalarini qamrab olgan tarix fanining siyosiy va ijtimoiy hayotdagi xaqiqiy o‘rnini ko‘rsatishga yordam berdi.

Prezident I. Karimov 2007 yil 30 avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Mahkamasi va Prezident Devonining O‘zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag‘ishlangan qo‘shma majlisida qilgan ma‘ruzasida yaqin o‘tmish tariximiz masalalarini o‘rganishga alohida e’tibor qaratib, tarixchilar oldiga quyidagi vazifani qo‘ydi: “SHuni ta’kidlash lozimki, mustaqillikka erishish davri haqida, eski tuzum inqirozga duchor bo‘lib, sobiq Ittifoq parokandalikka yuz tutgan bir paytda mamlakatimizda tobora keskin tus olgan siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy vaziyat, o‘zligimizni anglash va toptalgan milliy g‘ururimizni tiklashga qaratilgan intilish kuchayib borgani, Vatanimiz mustaqilligini qo‘lga kiritish qanday sharoitda kechgani haqida yaxlit, yagona va xolis ko‘z bilan baho beradigan jiddiy tahlil-tadqiqot hozirgacha amalda yo‘qligini afsus bilan aytishga to‘g‘ri keladi”¹.

¹ *Каримов И. Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли/ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси, Вазирлар Маҳкамаси ва Президент Девонининг Ўзбекистон мустақиллигининг 16 йиллигига бағашланган қўшма мажлисидаги маъруза // Халқ сўзи. 2007 йил 31 август.*

O'zbekiston milliy davlatchiligi taraqqiyotida 1920-1924 yillarda mavjud bo'lgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR) muhim tarixiy bosqich ekanligi ayni haqiqatdir. O'zbekiston Respublikasida va xorijiy mamlakatlarda BXSR tarixi mavzusi o'zini dolzarbligi bilan tadqiqotchilarni jalb qilib kelmoqda. Biroq BXSR tarixini o'rganishda davriy matbuotning manba bo'la olishi mavzusi tadqiqotchilar nazaridan chetda qolib kelayotir.

Davriy matbuot manbalari asosida BXSR tarixi masalalarini yoritishga qaratilgan mazkur malakaviy bitiruv ishida matbuot manba bo'la olishi yaxlit holda, atroflicha vamukammal qarab chiqilishi nazarda tutilgan. Bu esa BXSR tarixini milliy istiqlol mafkurasi asosida atroflicha o'rganish avvalo o'zbek davlatchiligi tarixining XX asr dastlabki O'n yilliklari xaqida xaqqoniy tasavvo'ni boyitish uchun ham muhimdir.

Matbuotda BXSRdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarning turli sohalari hisoblangan hukumat boshqaruv tizimi, harbiy-ma'muriy islohotlar, maktab va maorif tizimi va xokazolar xaqida muhim ma'lumotlar mavjud.

Biroq matbuot manbalari BXSR tarixini o'rganish uchun manba bo'la olishi masalasi tarix fanida maxsus tadqiq etilmagan bo'lsa-da, BXSRning 1920-1924 yillar tarixini o'rganish ushbu respublika tashkil topgan dastlabki yillardanoq boshlangan edi. BXSR tarixiga doyr yozilgan adabiyotlarni tahlil va tavsif qilish jarayonida shu aniq bo'ldiki, ularni metodologik yondashuv va ilmiy-amaliy xususiyatiga kura 2 davrga: sovet davrida yaratilgan tadqiqotlarga va O'zbekiston mustaqillikka erishganidan sung yuzaga kelgan asarlarga ajratish mumkin. Bu o'rinda BXSR hukumati a'zolari Fayzulla Xo'jaev, Abdurauf Fitrat va ularning zamondoshi, adib Sadriddin Ayniy¹ asarlarini alohida qayd qilish lozim. Ular birlamchi manbalar asosida voqealar tafsilotini xaqqoniy tasvirlashga erishgan bo'lsalar-da, sovet tuzumi va kommunistik mafkura ta'sirida o'z asarlarini qayta

¹ Ходжаев Ф. К истории революции в Бухаре. - Ташкент: Узгиз, 1926; Ўша муаллиф. К истории революции в Бухаре и национального размежевания Средней Азии. - Ташкент: Узгиз, 1932// Айний С. Бухоро инкилоби тарихи учун материаллар. - М.: СССР халқлари нашриёти, 1926; Ўша муаллиф. Қискача таржимаи холим // Айний С. Асарлар. 8 томлик. - Тошкент: Ўздавнашр, 1963. Т. 1 .-Б . 17-104; Абдурауф Фитрат. Бухорода инкилоб // Танланган асарлар. III жилд. - Тошкент: Маънавият, 2003.-Б . 205-210.

yozishga, ayrim joylarini o'zgartirishga majbur bo'lganlar. XX asr 20-yillarida yaratilgan bu tadqiqotlarda Buxorodagi taraqqiyparvarlar faoliyati, jadidchilik harakati, amirlik tuzumining ag'darilishi, BXSРning tashkil topishi, undagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar yoritiladi.

BXSР tarixini o'rganish XX asrning 50-70-yillarida ancha keng tus oldi. Bu davr tadqiqotlarida xukmron mafkuraning kuchli ta'siri sezilsa-da, ularda keltirilgan dalil va raqamlardan xozirgi kun tadqiqotlarida ham foydalanish mumkin. Bu borada O. Eshonov, L. SHek, A. Aliev, M. Irkaev, F. Kosimov, I. Alimov kabilarning asarlari va ilmiy ishlarini¹ alohida qayd qilish lozim. Ushbu mualliflar BXSРning siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy taraqqiyoti masalalari hususida fikr-muloxazalar bildiradilar. Jumladan, I. Alimov asarida BXSРdagi agrar munosabatlar tarixi tahlil qilinib, respublikadagi xo'jalik hayoti, er egaligi, uning shakllari, sug'orish tizimi, soliq miqdori va turlari, qishloq xo'jalik tarmoqlarining ahvoli bilan bog'liq qimmatli ma'lumotlar keltiriladi.

BXSРdagi matbuot tarixini o'rganishda taniqli publitsist Ziyo Said (Soli Qosimov) asari muayyan ahamiyatga ega. Uning "O'zbek vaqtli matbuoti tarixiga materiallar" nomli kitobi² Turkiston mintaqasida salkam 60 yil (1870-1927 yillar) davomida nashr etilgan davriy matbuotning o'ziga xos bibliografiyasi hisoblanadi.

Bevosita matbuot tarixiga dahldor bo'lgan tadqiqotlardan S. Inoyatov, T. Ernazarov va A. Akbarovlarning ishlarini ko'rsatish lozim³. S. Inoyatovning nomzodlik dissertatsiyasi davriy matbuotda qishloq xo'jaligini jamoalashtirish masalalarining yoritilishi muammosiga bag'ishlangan. Mazkur muallifning monografiyasida esa matbuotning ijtimoiy hayotdagi o'rni va roli yanada kengrok ochib berilgan. Bu tadqiqotlarda tarixchi olim xar qanday tarixiy davrni atroflicha

¹ Ишанов А. Создание Бухарской Народной Советской Республики (1920-1924 гг.). - Ташкент: Изд. АН УзССР, 1955;

² Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар (1870-1927). - Тошкент-Самарқанд: Ўздавнашр, 1927. - 180 б. (Қайта нашри: Зиё Саид. Танланган асарлар. - Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974).

³ Иноятлов С. Роль партийно-советской печати Узбекистана в осуществлении коллективизации сельского хозяйства (1929-1934 гг.): Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. — Ташкент, 1969; Уша муаллиф. Роль печати в интернациональном воспитании трудящихся. - Ташкент: Фан, 1986; Эрнazarов Т., Акбаров А. История печати Туркестана.-Ташкент: Укитувчи, 1976.

o'rganishda matbuot materiallari manba bo'la olishini isbotlagan. T. Ernazarov va A. Akbarovlarning fikricha, Buxoroda amirlik tuzumi ag'darilgan birinchi kunlardan (1920 yil sentyabr) Buxoro kommunistik partiyasi markaziy komiteta organi "Buxoro axbori" gazetasi chiqa boshlagan, gazeta o'zbek tilida 2500 nusxada, 2 sahifada, ayrim hollarda 4 sahifada nashr qilingan. Ushbu asar kommunistik mafkura ta'sirida yuzaga kelgan bo'lib, unda XX asr boshlarida chop etilgan milliy tildagi matbuot organlariga holisona baho berilmagan, bolsheviklar matbuotining roli esa orttirib ko'rsatilgan.

Mustaqillikning dastlabki yillarida XX asrning 20-30- yillari davriy matbuoti haqida tadqiqotlar yozish an'anasi davom ettirildi. V. Muhammadjonovanning nomzodlik ishi ushbu mavzuga bag'ishlangan. SHuningdek, XX asr birinchi choragida Turkiston mintaqasidagi matbaachilik, milliy matbuotning o'рни va roli, demokratik islohotlarni amalga oshirishda matbuotning ahamiyati masalalari ham bir qator ilmiy asarlarning mavzusi bo'ldi. Jurnalistika tarixi bilan shug'ullanuvchi olimlar: N. Abduazizova¹ va B. Do'stqoraev² kabilarning kitob va darsliklari o'zbek matbuotchiligi va jurnalistikasi tarixini tadqiq qilishdagi ilk qadamlar bo'ldi. Tarixchi olim A. Mingnorovning nomzodlik dissertatsiyasi va risolasida milliy matbuot materiallari asosida Turkistonda 1917-1918 yillar davomida faoliyat yuritgan milliy tashkilotlar tarixi ochib berilgan.

Tarixchi olim S. SHodmonovanning doktorlik dissertatsiyasi va Monografiyasi ham matbuotning manbaviy ahamiyatini ko'rsatishga qaratilgan. Tadqiqotchi 1870-1917 yil fevraligacha chop etilgan o'zbek va rus tilidagi davriy matbuot materiallari asosida Turkiston mintaqasida kechgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarni ilmiy tahlil qilgan. YOsh izlanuvchi M. Orzievning bir qator ilmiy maqola va tezislari "Buxoroi SHarif" va "Turon" gazetalarining manbaviy ahamiyatiga yo'naltirilganligi ham e'tiborga loyiqdir.

¹ Абдуазизова Н. Ўзбекистон журналистикаси тарихи (1870-2000) - Тошкент: Академия. 1999;

² Дустьқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. (1870-1917 йил ноябрь). Дарслик. - Тошкент: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009.

BXSR tarixiga oid tadqiqotlar doirasi, ayniqsa, mustaqillik yillarida kengayib, ushbu muammoni yoritishga imkon qadar holisona yondashildi. Tarixchi olimlarning asl manbalarga tayangan xolda yaratgan qator tadqiqotlari vujudga keldi. Bu borada F. Qosimov, B. Ergashev, Q. Rajabov, U. Rashidov, JI. Muhammadjonova, SH. Hayitov, S. Xolboev, G. Ostanova kabi mualliflarning ishlari e'tiborga loyiqdir.

“O‘zbekistonning yangi tarixi” asari birinchi va ikkinchi kitoblarida XX asr boshlarida Buxorodagi siyosiy va ijtimoiy jarayonlar va harbiy harakatlar tarixiga alohida e'tibor qaratildi¹. Taniqli tarixchi olim R. Rajapova ilmiy muharrirligida rus tilida tayyorlangan kollektiv monografiyada Buxoroning 1917-1924 yillardagi tarixi bo'yicha eng yangi fikrlar va xulosalar o'z aksini topgan². F. Qosimovning mustaqillik yillarida yaratilgan bir qator kitob va maqolalari BXSR tarixshunosligi rivojida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Olim tadqiqotlarida sovet davri va mustaqillik yillarida yaratilgan BXSR tarixiga oid asar va maqolalarning tahlilini beradi. B. Ergashev va L. Muhammadjonovalar o'zlarining tadqiqotlarida o'rganilayotgan davrda Buxorodagi ijtimoiy-siyosiy fikr rivoji, demokratik tamoyillar va ozodlik uchun kurashning mafkuraviy negizlari haqida ilmiy mushoxada yuritadilar. BXSRda sovet tuzumiga qarshi qurolli harakat va mafkuraviy kurash muammolari. Q. Rajabovning doktorlik dissertatsiyasi, maxsus monografiyasi va tadqiqotlari asosini tashqil qiladi. U. Rashidovning kitob va maqolalarida asosiy e'tibor BXSRda vatanvarpar kuchlar bilan qizil armiya qismlari o'rtasidagi kurashlar masalasiga qaratilgan. SH. Hayitovning hamkorlikda yaratilgan kitoblari va maqolalarida BXSRdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayot hamda muammo va qiyinchiliklar, ayrim hukumat rahbarlarining faoliyati va taqdiri tarixiy manbalar asosida ochib berilgan.

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. - Тошкент: Шарк, 2000; Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида / Илмий муҳаррир Жўраев М. - Тошкент: Шарк, 2000.

² Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости/ Научный редактор Раджапова Р. - Ташкент: Шарк, 2000.

Muhimi shundaki, olim “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalari materiallaridan muayyan darajada foydalanish S. Xolboevning yuqorida qayd qilingan kitobida hanuzgacha ilmiy muomalaga kiritilmagan arxiv manbalarni asosida Buxoro amirligining oltin xazinasi, uning taqdiri haqida mulohazalar beriladi. Shuningdek, muallif “Buxoro axbori” gazetasidagi ayrim materiallar orqali BXSR hukumatining moliyaviy siyosatiga oid ma’lumotlarni keltiradi.

Xozirgi vaqtda Buxoro viloyatida chop etilayotgan “Buxoronoma” gazetasining xodimlari va jamoatchi muxbirlari tomonidan uning 20 000-soni nashr etilishi munosabati bilan bog‘liq “20.000- uchrashuv” nomli publitsistik risola chop qilindi. Ushbu risolada “Buxoro axbori” 1-soni chop etilgan 1920 yil sentyabrdan 2007 yilning dekabriga qadar chiqqan matbuot organlari va bugungi kunda “Buxoronoma” nomi ostida chiqayotgan gazeta faoliyatida ishtirok qilgan muharrir va muxbirlar hayoti xaqida maqola va tarixiy lavhalar keltirilgan. Bu risola Buxoro matbuotchilik tarixi solnomasini yaratishda muhim ahamiyatga ega.

SHu o‘rinda mazkur mavzu bilan bog‘liq monografiya muallifining nomzodlik dissertatsiyasi hamda bir qator maqolalarini ta’kidlab o‘tish mumkin. BXSR tarixi masalalari xorijda chop etilgan ba’zi bir adabiyotlarda ham bayon qilingan. Xorij tarixshunosligida muxojirlardan Axmad Zaki Validiy To‘g‘on va Boymirza Hayit, shuningdek, turk tarixchisi Mexmet Saray kabilarning tadqiqotlarini alohida ko‘rsatish mumkin. Xorijda ushbu muammoga bag‘ishlab yozilgan ishlar bu yo‘nalishdagi tadqiqotlarni ilmiy jihatdan yangi materiallar bilan boyitadi.

I BOB. BUXORODA MAHALLIY MATBUOT VUJUDGA KELISHINING TARIXIY OMILLARI

1.1 Buxoroda mahalliy motbuot vujudga kelishida jadidlar vaqtli matbuotlari ta'siri.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Turkiston mintaqasida milliy istiqlol uchun kurash, demokratik tartiblarni o'rnatish, xalqni jaholat, ilmsizlik va hurofotdan chiqarish maqsadida jadidlar keng faoliyat olib bordilar. Bunday hayrli maqsadga erishish yo'lida matbuot qudratli kuch ekanligini ular to'g'ri anglaganlar. Bu yo'nalishda Turkiston mintaqasidagi jadidchilik harakatining taniqli namoyandalari Maxmudxo'ja Bexbudiy, FayzullaXo'jaev, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydulla Xo'jaev kabilar mahalliy matbuotni shakllantirishda muhim rol o'ynadilar. Mintaqadagi milliy davriy nashrlar tashkil qilinishiga qrim-tatar millati vakili Ismoilbey Faspirali (Gaspirinskiy)ning (1851-1914) 1883-1914 yillarda chop etgan "Tarjumon" gazetasi, Turkiyada chop etilib yashirin ravishda yurtimizda tarqatilgan "Sirotul mustaqim" ("To'g'ri yo'l"), Afg'onistonda 1909-1919 yillarda chiqib to'rgan "Sirojul axbor afg'oniya" ("Afg'on xabarlar yoritkichi") kabi gazetalarning ta'siri katta bo'ldi. Bundan tashqari, Hindiston va Misrda chop etilgan matbuot organlari ham XX asr boshlarida Buxoroga kirib keldi. Jumladan, Hindistondan fors tilida nashr etiladigan "Xabl-ul-matn", Misrdan "CHexranoma" kabi jurnallar kelib turardi¹. Tadqiqot va izlanishlar shuni ko'rsatdiki, Erondan "Adolat" va "Al-hadid" ("Temir") gazetalari ham Buxoroga kelib to'rgan. YUqorida qayd etilgan gazeta va jurnallar orqali Buxoro ziyolilari dunyo voqealari, Birinchi jaxon urushi maydonlaridagi harbiy harakatlar, dunyo iqtisodiyoti, fani, texnikasi sohalarida ro'y bergan yangiliklar hakida xabardor bo'lib, o'zlari yashab to'rgan o'lkaning taraqqiyotdan ortda qolganligiga ishonch hosil qildilar.

¹ Рашидов У., Рашидова Л. Бухоро амирлигида жадидчилик ҳаракати ва унинг шаклланиш омиллари / Из истории культурного наследия Бухары. (10 выпуск). - Бухара: Бухара, 2006. — С. 81.

Buxoroda monarxiya tuzumini tanqid ostiga olgan jadidlarning vakillaridan biri Sadridsin Ayniy (1878-1954) “Tarjumon” gazetasini o‘qib, “parlament” so‘zining mohiyatini antaganligini qayd etadi¹.

XX asr boshlarida Turkistonda chinakam mahalliy matbuotning yuzaga kelishida 1906 yil Ismoil Obidov muharrirligida “Taraqqiy” gazetasining chop etilishi muhim rol uynaydi. Rossiya imperiyasi mahalliy ma’murlarining qat’iy senzurasiga qaramay, “Xurshid” (1906), “SHuxrat” (1907), “Osiyo” (1908) kabi matbuot organlari nashr qilindi².

N. Abduazizovanning ta’kidicha, milliy matbuot rivojlanish jarayonining ikkinchi bosqichi 1912-1915 yillarni o‘z ichiga oladi. Bu davrda “Samarqand”, “Oyina” (1913), “Sadoi Turkiston” (1914— 1915), “Sadoi Farg‘ona” (1914) kabi matbuot organlari o‘z yo‘lidagi jiddiy to‘siq va g‘ovlarga qaramay milliy ong, milliy til, milliy adabiyot va jurnalistikaning shakllanishida muhim rol o‘ynadi³.

Tarixiy jarayonlar keskinlashgan 1917 yilda ijtimoiy-siyosiy faollik va milliy birlikni ta’minlash maqsadida o‘nlab gazeta va jurnallar faoliyat yuritdi. Ushbu yilda nashr etilgan “Najot”, “Turk eli”, “Turon”, “Ulug‘ Turkiston”, “Hurriyat”, “El bayrog‘i” gazetalari, “YUrt”, “CHayon” jurnallari kabilarni qayd qilish mumkin.

Rossiya imperiyasining yarim mustamlakasi bo‘lgan Buxoro amirligida XX asr boshlarida taraqqiyparvarlar harakati yuzaga keldi. Bu yangi usul maktablari ochilishi jarayonida hamda yashirin maorifchilar jamiyati hisoblangan “Tarbiyai atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) maxfiy jamiyatiining tuzilishida namoyon bo‘ldi.

“Tarbiyai atfol”ni tuzishda Abduvoxid Burxonov, Axmadjon Hamdiy, Mukomil Burxonov, Hamidxuja Mehriy, Xuja Rofiy kabilar faol bo‘ldilar⁴. Keyinchalik bu jamiyatning safi kengayib, uning a’zolari gazeta, jurnal, maorifga

¹ Эргашев Б.Х. Идеология национально-освободительного движения в Бухарском эмирате. - Т.: Фан, 1990. — С. 22.

² Очилев Н. Даврий матбуот // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Ж. 1 2. - Т.: ЎзМЭ нашриёти. 2006. - Б. 227.

³ Туркестон матбуоти тарихи (1870-1917). Тузувчи Н. Абдуазизова. - Т.: Академия. 2000. - Б. 6.

⁴ Ражабов Қ. “Тарбияи атфол” // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Ж. 8. - Т.: ЎзМЭ нашриёти. 2004. - Б. 271.

oid kitoblar orqali amirlikdagi savodsizlikni tugatish uchun amaliy tadbirlarni qoʻllay boshladilar.

“Bolalar tarbiyasi” jamiyati aʼzolari oʻzlarining moddiy imkoniyatlaridan foydalanib, “Kitob savdosi doʻstligi maorif jamiyati” va “Barakot akchionerlik jamiyati” tashkilotlari orqali Boku (Ozarboyjon), Istanbul (Turkiya) kabi shaharlarda chop etilgan diniy va dunyoviy adabiyotlarni hamda gazeta, jurnallarni xalq orasida yashirin tarqata boshladilar. Buxoro amirligi siyosiy hayotida 1885 yilda tashkil topgan Rossiya imperatorligining Buxorodagi siyosiy agentligi (1885-1917) mudxish rol oʻynadi. Mamlakatda gazeta va turli kitoblarni chop etish uchun Rossiya hukumatining ushbu idorasidan rasmiy ruxsat olinishi kerak edi.

1.2 “Buxoroyi sharif” va “Turon” gazetalarining tarixi.

1912 yilda “Tarbiyai atfol” maxfiy jamiyati a’zolaridan Muhiddin Mansurov va Mirza Siroj Hakim kabilarning sa’y-harakatlari tufayli amirlikda tojik tilida “Buxoroyi sharif” gazetasini chiqarishga ruxsat olindi. Gazetaning raxbari Rossiya siyosiy agentligida tarjimon bo‘lib faoliyat yuritgan Mirxaydarxo‘ja Mirbadalov edi. “Buxoroyi sharif”ning birinchi soni 1912 yilning 11 martida YAngi Buxoro (Kogon) shahrida chop etildi¹.

“Buxoroyi sharif” gazetasi haftada dastlab 2 - 3 marotaba nashr qilinib, gazetaning tuzilmasi 4 sahifadan iborat edi. 1 - sahifasida muharririyat maqolasi, chet el va O‘rta Osiyodagi yangiliklar, voqealar, 2- va 3-sahifalarida publitsistik maqolalar, taniqli adiblarning asarlari tarjimalaridan parchalar va unga taxririyaatning nuqtai nazari, jahon adabiyoti asarlaridan namunalar chop etilgan bo‘lsa, so‘nggi sahifada asosan e‘lonlar, bildirishlar, savdo dukonlari manzillari gazetaning deyarli barcha nashrlarida bosilgan. Gazetaning tanishib chiqilgan mavjud sonlari orqali o‘quvchilarga necha nushada tarqatilganligi bilan bog‘lik aniq qayd etilgan raqamga duch kelinmadi.

“Buxoroyi sharif” gazetasida Sadriddin Ayniy va Mirzo Siroj Hakim o‘zlarining publitsistik maqolalari bilan faol qatnashdilar. Keyingi davrda e‘lon qilingan, matbuotchilik tarixi bilan bog‘liq tadqiqotlarda “Buxoroyi sharif” gazetasining turli sonlarida chop etilgan maqola va badiiy ijod namunalari atroflicha tahlil va tavsif qilinmoka. Jumladan, tadqiqotchi U. Amonov “Buxoroyi sharif” ning 53-, 59-, 94-, 96-sonlarida e‘lon qilingan Munzim (Abdulvohid Burkonov) hamda Fitrat she‘riy asarlaridan ayrimlarini tahlil qiladi. Munzimning “Vatan”, “Tobakay” (“Kachongacha”), “Maktab” kabi she‘rlaridan parcha keltirib, ularning o‘zbekcha tarjimasini beradi. “Buxoroyi sharif”ning 1912 yil 29 iyun 94-sonida va 3 iyul 96-sonida Fitratning tojik tilida bitilgan 40 misradan iborat

¹ Ўзбекистон тарихи солномаси / Тузувчи муаллифлар: Ражабов К., Хасанов Ф. - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.- Б.88.

“Faryod” nomli she’rini o‘z maqolasida to‘liq keltirib, uning o‘zbekcha matnidan o‘quvchilarni xabardor qilganligi ham e’tiborga loyiq¹.

“Buxoroyi sharif” gazetasi orqali uning o‘quvchilari rus adibi JI. Tolstoyning “Ilyos”, “Bir-biringizni seving”, “Xitoy malikasi Si Lin CHi”, “Mehnatkash Emelyan va bo‘sh baraban”, “Ikki savdogar”, “Kavkaz asiri” kabi hikoyalari bilan tanishdilar².

“Buxoroyi sharif” gazetasiga muharrirlik qilish uchun Bokudan matbuotchilik sohasida bir qadar tajribaga ega bo‘lgan Mirzo Jalol YUsufzoda taklif qilinib, tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra, gazeta 4 oy davomida muttasil uning muharrirligi ostida chop etib turilgan.

Biroq Buxoro amirligida aholining asosiy qismi o‘zbek tilida so‘zlashganligidan kelib chiqib, ilg‘or fikr namoyandalari o‘zbek tilida ham gazeta nashr qilishni yo‘lga qo‘ydilar. “Buxoroyi sharif” gazetasiga asos solingan sanadan 4 oy o‘tib, ya’ni 1912 yil 11 iyul “Turon” gazetasining 1-soni nashr qilindi³.

Dastlabki 14 soniga Mirzo Jalol YUsufzoda muharrirlik qilgan. (Biroq 1-soniga Mirzo Siroj Hakim imzo chekkan.) Noshiri K. Levin bo‘lib, 15-sondan noshirligi “Buxoroyi sharif” shirkati ixtiyoriga o‘tadi. Mazkur sonidan boshlab gazetaning 21-sonigacha Mirhaydarxo‘ja Mirbadalov muharrir bo‘lgan. Qiska vaqt, ya’ni 22-sondan 25-sonigacha Husayn Ibrohimov, 26-sondan oxirgi sonigacha yana Mirhaydarxo‘ja Mirbadalov mas’ul muharrirlik qilgan.

“Turon” ning 1-sonida shunday rukndagi materiallar uchraydi: bosh maqola, ijtimoiy-madaniy mavzudagi maqolalar, telegraf xabarlar, mahalliy, xorijiy, doxiliy (ichki), tijoriy xabarlar: reklama va e’lonlar. Bu tuzilish gazetaning deyarli oxirgi sonigacha saqlanib qolgan. Filolog olim B. Dustqoraev “Turon” gazetasining deyarli barcha sonlaridagi turli sohalarga doyr maqolalarni tahlil qilib,

¹ Амонов У. “Бухоройи шариф” рузномасини укиб... // Педагогик махорат. 2007. № 1. -Б. 50-51.

² Эргашев Б. Идеология национально-освободительного движения в Бухарском эмирате. - Т.: Фан, 1990. - С. 27.

³ Қосимов Ф. Бухорода миллий демократии ҳаракатнинг узига хос хусусиятлари / Марказий Осиё XX аср бошларида: ислохотлар, янгиланиш ва тараккиёт учун кураш.-Т., 2001.-Б. 117х

mazkur matbuot organi ham Buxoro ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hayotida muhim rol o'ynaganligini alohida qayd etadi¹.

Keyinchalik "Buxoroyi sharif" xdfatda 3-4 marotaba, "Turon" gazetasi esa 2-3 marotaba chiqib turdi. Moliyaviy ahvolning tangligi munosabati bilan Levinning tipografiya firmasi gazetalarni bosib chiqarishdan bosh tortganidan keyin, jadiddar "Buxoroyi sharif" shirkatini tuzib, uning a'zolaridan pul to'play boshladilar va gazetalarning chiqishini ta'minladilar.

YUqoridagi matbuot organlari oz sonli o'quvchilari orasida qiziqish bilan o'qilsa-da, biroq ularni chop etishga sarflanayotgan harajatni qoplamasdi. Birinchidan, obuna bo'lganlar soni oz edi. Gazetalarni chop etish harajatlarini o'z zimmasiga olgan homiylar hamda bosmaxona rahbariyati moddiy manfaatdorlik bo'lmaganligi uchun gazetalar faoliyatini to'xtatib qo'yish fikrida bo'ldilar. Buxoro jadidchilik harakati namoyandalari o'zlari asos solgan dastlabki matbuot organlari faoliyati to'xtashining oldini oluvchi chora-tadbirlarni ko'rdilar. Gazetalar dunyo yuzini ko'rishida jonbozlik ko'rsatgan M. Mansurov ularga ketadigan sarf-harajatlarni shaxsan o'z zimmasiga oladi. Usmon Xo'ja (Usmon Xo'ja Pulatxo'jaev; 1878-1968) ham "Tarbiyai atfol" tashkiloti faoliyatida va gazetalar nashr qilinishida xizmatini ayamagan².

"Buxoroyi sharif" va "Turon" gazetalari amirlikdagi qoloq tartiblar hamda mustamlaka hukumatining zuravonlik siyosati kabilarni tanqid ostiga olganligi hukumat doiralarida gazetalar chop etilishiga qarshi fikrlarni kuchaytirdi. Yana bir jihati shundaki, "qadimchilar" va amirlikdagi reaksiya doiralar gazetalarini nashr qilish ishiga imkon qadar to'sqinlik qila boshladilar. Bu borada Buxoro amiri hamda uning amaldorlari, konservativ kuchlar va Buxorodagi Rossiya siyosiy agentligining fikri muvofiq keldi. YUqoridagi to'siqlar oqibatida 1913

yilning 2 yanvarida "Turon" gazetasi o'zining 49-soniga kelib, "Buxoroyi sharif" esa 153-sonida o'z faoliyatini to'xtatdi. Demak, "Buxoroyi sharif" 1912

¹ *Дустқороев Б.* Бухорода миллий матбуотнинг юзага келиши // Маърифат. 2008 йил 21, 25, 28 июнь.

² *Ражабов К.* XX аср бошларида Туркистон ёшлари. Уларнинг сиёсий фаолияти ва Шарқ мамлакатларидаги ёшлар ҳаракатлари билан узвий алоқалари // Ҳуқуқ вабурч. 2000. №1.-Б. 39-43.

yilning 11 martidan 1913 yil 2 yanvargacha, “Turon” gazetasi 1912 yil 11 iyuldan 1913 yil 2 yanvarigacha chop etib turilgan¹.

“Buxoroyi sharif” va “Turon” gazetolari qisqa muddatda chop etilgan bo‘lsa-da, Buxoro amirligida zamonaviy matbuotchilik tarixi boshlanishida muhim bosqich bo‘ldi. Gazetalar amirlikdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma’rifiy ahvolning XX asr boshlaridagi qiyofasini o‘tkir maqolalar orqali ommaga etkaza oldi. Jumladan, amirlikdagi qishloq xo‘jaligi va savdo- sotiqning ayanchli ahvoli, sanoat taraqqiyotidagi qoloqlik kabi salbiy jihatlarni bir qator maqolalar orqali bayon qilib berdi.

Buxoro amirligida xalqning ko‘pchiligi savodsizligi, Buxoro shahrida ikki yuzga yaqin madrasalar bo‘lib, ularda asosan diniy ilmlarga e’tibor qaratilishi, mashg‘ulotlarning arab tilida olib borilishi, talabalarning ko‘pchiligi chalasavod bo‘lib chiqayotganligi gazetalarda tanqidiy ruxda qayd qilingan.

Gazetalar mavjud kamchiliklarni tanqid qilibgina qolmay, ayrim maqolalarda amirlikda maorif va madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan aniq taklif va mulohazalar bildirilganligining guvosi bo‘lish mumkin. Jumladan, gazeta sahifalarida nafaqat o‘g‘il bolalar, balki qizlarning ham savodini chiqaradigan maktablar ochish, maktab o‘qituvchilariga maosh joriy qilish orqali ta’lim tizimini yaxshilash taklifi bilan maqolalar e’lon qilingan.

“Buxoroyi sharif” va “Turon” gazetolari Buxoro amirligida milliy demokratik g‘oyalarni targ‘ib qilish, savodxonlikni oshirish orqali asriy qoloqlikdan qutulish kabi mavzulardagi targ‘ibotchilik ishida, Buxorodagi taraqqiyparvarlarni birlashtirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘ldi. Sadriddin Ayniyniinge’tirof etishicha, “ushbu ikki gazeta xar bir narsadan xabarsiz Buxoro aholisini tarixdan, siyosatdan, jo‘g‘rofiyadan, musulmonlarning haloqat chuquriga tushayotganlaridan xabardor qildilar. YOshlar boshiga adabiyot, qalam va o‘qimoq

¹ Ўзбекистон тарихи солномаси / Тузувчи муаллифлар: Ражабов К, Хасанов Ф. - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007. - Б. 88-89.

fikrlari tushdi. Otalar eslariga bola tarbiyasi va o‘qutmoq xayollari keldi”¹. “Buxoroyi sharif” va “Turon” gazetalarini orqali Buxoroda matbuotchilik tarixi boshlanib, ushbu sohada bir qadar tajriba hosil bo‘ldi va jurnalistika yo‘nalishining dastlabki davriga asos solindi. Buxoro amirligida kechgan keskin siyosiy jarayonlar matbuotchilik ishida 3-4 yil tanaffus qilinishiga sabab bo‘ldi. Bundan keyingi matbuot rivoji muxojirlikka mahkum Buxoro jadidlari tomonidan Turkiston mintaqasining boshqa shaharlarida davom ettirildi.

1918 yilning bahorida ro‘y bergan “Kolesov voqeasi” oqibatida Buxoro jadidlari ta‘qib va tazyiq ostiga olindi. Muxojirlikda yashashga majbur bo‘lgan islohot tarafdorlari o‘z siyosiy faoliyatlarini Toshkent, Samarqand, Moskva shaharlarida davom ettirish bilan birga matbuot organlarini chop ettirdilar. YOsh buxoroliklar 1919 yilda “Qutulish”, 1920 yilda “Uchqun” gazetalarini va “Tong” jurnalini chiqardilar. Ushbu gazetalar va jurnalda Fayzulla Xo‘jaev, Fitrat, Pulat Soliev (Bulat Soliev) kabilarning maqolalari e‘lon qilindi. “Qutulish” forscha she‘rlari bilan Buxoroga otashporalar sachratdi. “Uchqun” ham uz navbatida ba‘zi bir alangalar tashladi”² - deb yozadi Ayniy. Biroq ushbu matbuot nashrlari ham mablag‘ etishmasligi va moddiy texnik bazaning deyarli mavjud emasligi, reaksiyon kuchlarning ta‘qibi oqibatida jadidlarning o‘z yashash joylarini tez-tez o‘zgartirib to‘rganligi kabi omillar tufayli uzoq faoliyat yurita olmadi.

Buxoro matbuotchilik tarixining bundan keyingi davri bevosita amirlik tuzumining ag‘darilishi va uning o‘rnida BXR hukumatining o‘rnatilishi bilan bog‘liq. 1918-1920 yillarda Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy voqealarning tarixan o‘ta murakkab va ziddiyatli kechganligi matbuot masalasiga alohida e‘tibor qaratish imkonini bermadi.

Xullas, XX asr boshlarida ham Rossiya imperiyasining yarim mustamlakasi bo‘lib qolgan Buxoro amirligiga dunyoda yuz berayotgan keskin ijtimoiy, siyosiy, madaniy jarayonlar o‘zining sezilarli ta‘sirini o‘tkazdi. Buxoro

¹ Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар / Асарлар. 8 томлик. Т. 1.-Т ., 1963.-Б . 243.

² Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар / Асарлар. 8 томлик. Т. 1.-Т ., 1963.-Б . 346.

taraqqiyparvarlarining ma'rifatchilik hamda islohotchilik harakati boshlandi. Bu esa amirlikda jadidchilik harakatining keng quloch yoyishi, YOsh buxoroliklarning ilg'or fikrlarini xalq orasida targ'ib qilishi kabilarda yaqqolroq namoyon bo'ldi. Zamonaviy ilg'or fikr va g'oyalarni targ'ib qilishning eng muhim vositasi bo'lgan davriy matbuot organlariga asos solish harakatiga XX asr ikkinchi o'n yilligining boshlarida kirishilgan edi. Qisqa muddatda bo'lsa-da, chop etib turilgan "Buxoroyi sharif" va "Turon" gazetolari Buxoro amirligida jadidchilik g'oyalarini keng yoyishga, ularning istak va maqsadlarini aholiga etkazishga yordam berdi. SHuningdek, ushbu matbuot nashrlari amirlikdagi mahalliy matbuotchilik tajribasining shakllanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi.

Buxoro amirligida 1918-1920 yillar davomida kechgan siyosiy voqealar, jadidlar harakatining faollashuvi matbuotchilik rivojiga ham ta'sir etdi. "Uchqun", "Qutulish" gazetolari va "Tong" jurnalining bir necha sonlarigina chop etilishi Buxoro taraqqiyparvarlarining bu yo'nalishdagi faoliyati davomiyligini ko'rsatadi. Biroq ushbu jurnal va gazetalar amirlik hududidagi aholi keng qatlamlari orasiga etib bormadi.

1920 yil 2 sentyabrda Buxoroda amirlik tartibi ag'darildi va BXSR tashkil topganidan sung muntazam chop etiladigan matbuotga asossolindi. Xullas, XX asr boshlarida Buxoro matbuotchiligi tarixi uning o'ziga xos yo'ldan borganligini va taraqqiyparvarlarning uzluksiz chiqib turadigan mahalliy matbuotga asos solishdek xatti- harakatlari amaldagi natijasini ko'rsatadi.

1.3. “Buxoro axbori” gazetasining umumiy tavsifi va mazmuni.

1920 yil avgust oxirlari va sentyabr oyi boshlarida Buxoro amirligi agʻdarilganidan keyin uning oʻrnida tuzilgan Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hukumatining reja, dastur va vazifalarini sobiq amirlik hududida yashovchi aholiga etkazish maqsadida mahalliy matbuotga asos solish, yaʼni maxsus bir gazeta chop ettirish masalasi kun tartibiga qoʻyiladi. BXSR hukumati aʼzolari orasida matbaachilik maktabini bir qadar oʻtagan, muxojirlnkda boʻlsa- da, gazetalar chop etishga mutasaddilik qilgan, jurnalistik malakaga ega boʻlgan vakillar bor edi. Yangi hukumat siyosatini keng jamoatchilikka targʻib qilishdek vazifani bajarishda matbuotning roli beqiyos ekanligini anglagan masʼul lavozimlardagi raxbarlar gazeta nashr etish ishiga muhim masalalardan biri sifatida qaradilar. SHuning uchun 1920 yil 9 sentyabrda, yaʼni amirlik tuzumi agʻdarilganidan roppa-rosa bir hafta oʻtib, BXSRning markazi Eski Buxoro (hozirgi Buxoro) shahrida oʻzbek adabiy tilida, isloh qilingan arab imlosida “Buxoro axbori” nomi bilan gazeta chop etildi¹. “Buxoro axbori”ning 1920 yil 9 sentyabrda bosmaxonadan chiqqan 1-sonida muharririyat tomonidan bosilgan “Maqsad va maslak” nomli yirik maqolada: “Gazetaning maqsadi buxoroliklarga inqilobimizning va uning amallarini sabablarini, uning qoida va fazilatlarini bir suratda tushuntirmakdan iboratdur... SHu barobar kelajak ishlarining saodat va iqboli yoʻlinda ragʻbat etib, Buxoroning obodligiga xizmat etmak”² kabi fikrlar mavjud. Gazeta ilk sonidagi ushbu maqolada bundan keyin Buxoro hayotida roʻy beradigan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy- adabiy, maʼrifiy-madaniy oʻzgarishlarga eʼtibor qaratilishi ham alohida taʼkidlanadi. Toʻrt sahifada chop etilgan “Buxoro axbori” gazetasining dastlabki soni bilan batafsil tanishilganda, uning 1 -sahifasi YUqori qismida “Buxorolik vatandoshlar! Ozod Vataningiz muborak boʻlsun!” shiori qayd

¹ Раҳмонов К, Ҳайитов Ж. Бухорода маҳаллий матбуотнинг вужудга келиши тарихидан (XX асрнинг биринчи чораги) // Бухоро давлат университети илмий ахбороти. - Бухоро, 2008. № 3 .-Б . 24-28.

² Раҳмонов К. “Бухоро ахбори” газетаси - Бухоро Республикаси матбуот органи // Жамият ва бошқарув. - Т., 2004. № 2. - Б. 44-46.

qilingan. Keyingi barcha sonlariga sovet davri matbuoti uchun an'ana bo'lib qolgan "Butun dunyo yo'qsullari, birlashingiz!" shiori asos qilib olingan.

"Buxoro axbori" gazetasi shakli bilan tanishilar ekan, gazeta katta formatda 2 sahifada, o'rta formatda 4 sahifada, yupqa va sifati YUqori darajada bo'lmagan sarg'ish rangli bosmaxona qog'ozida chop etilgan. Gazeta birinchi sonining 1-sahifasida hukumat xabarlarining salmoqli maqolalari va turli-tuman maqolalar bosilgan. YUqoridagi fikr dalili sifatida aytish lozimki, gazetaning ilk sonida BXSR Xalq Nozirlar SHurosi raisi Fayzulla Xo'jaevning "Kuntug'di" nomli yirik maqolasi e'lon qilingan. Gazetaning 1-sahifasi teng yarmini eg'allagan mazkur maqolada Buxoroda 1920 yil sentyabr oyi boshlarida yuz bergan keskin siyosiy jarayonlar o'z davri talablaridan kelib chiqqan xolda bayon qilingan¹.

"Buxoro axbori" gazetasining 2-sahifasida muharririyat a'zolari va ayrim mutasaddi hukumat xabarlarining ichki muammolarga oid yirik maqolalari hamda BXSR xo'jalik hayotining turli tarmoqlariga tegishli xabarlar bosilgan.

Gazetaning 3-sahifasi BXSR atrofidagi mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayoti, SHarq va G'arbning turli davlatlarida kechayotgan voqealar tafsilotiga yo'naltiripgan. YUqoridagi turli-tuman chet el matbuot organlaridan ko'chirilgan maqolalar "Bizdan tashqarida", "CHet ellarda", "SHarqda", "SHurolar ittifoqida", "Turkistonda" kabi ruknlar ostida bosilgan. Keyingi sonlarda bu ruknlar doirasi yanada kengayib borgan.

"Buxoro axbori"ning to'rtinchi ya'ni so'nggi sahifasi BXSR hukumatining buyruq va qarorlari, hukumat muassasalari va nozirliklarning bildirishnomalaridan iborat bo'lib, ular "Hukumat tadbirlari" va "Rasmiy kism" ruknlari ostida berilgan.

"Buxoro axbori" gazetasi Butun Buxoro inqilobiy qo'mitasi (revkom), keyinchalik (1921 yildan) BXSR Markaziy Ijroiya qo'mitasi (MIK) organi sifatida chop etilgan.

¹ Раҳмонов К. Матбуотда дунё мамлакатларидаги ижтимоий- сиёсий муаммолар талқини // Бухоро давлат университети илмий ахбороти. - Бухоро, 2011. №1. - Б. 4-8.

“Buxoro axbori” gazetasi 1920 yil 9 sentyabrda chop etilgan 1 -sonidan boshlab 2 yil davomida, ya’ni 1922 yil 21 sentyabrga qadar xaftada bir marta 1000-1500 nusxada bosmadan chiqarib turilgan.

“Buxoro axbori” gazetasining 1-soni 4-sahifasi oxiridagi ma’lumotdan aniq bo’ladiki, gazetaning dastlabki muharriri ma’rifatparvar, matbaachilik sohasida muayyan tajriba orttirgan Maxmud Said Ahroriy hisoblanadi. Bir qator tarixiy tadqiqotlarda va matbaachilik o’tmishiga bag’ishlangan publitsistik maqolalarda “Buxoro axbori”ning birinchi muxdriri mashxur adib, BXSР hukumati nozirlaridan biri Abdurauf Fitrat (1886-1938) bo’lganligi mazmunidagi xabar va ma’lumotlar uchraydi¹. Gazeta 1-sonining asl nusxasi YUqoridagi fikr asossiz ekanligining manbaviy isbotidir.

BXSРda aholining o’zbeklardan keyin ko’p sonliligi jihatidan tojiklar ikkinchi o’rinda to’rgan, shu sababli “Buxoro axbori”ning 2-sonidan boshlab gazetaning ayrim sahifalarida tojik tilida ham xabar va maqolalar e’lon qilingan. Biroq gazetaning oltinchi soniga kelib, tojik tilida materiallar berilishi to’xtab qoldi. S. Ahroriyning maqolasida yozilishicha, bunga sabab tojik tili muharririyati a’zolarining tez-tez o’zgarib turishi, mas’uliyatsizligi, malakali jurnalistlarning etishmasligi edi.

Said Ahroriy muharrirlik qilgan davrda (1920 yil 9 sentyabr- 1921 yil 30 iyun) “Buxoro axbori”, yuqorida ta’kidlanganidek, bir oyda 4-5 marta, ya’ni xafta davomida bir marta chop etib turilgan. Xaftaning gazeta chop etiladigan ko’pi aniq, qat’iy belgilanmagan bo’lib, uning chiqishi ba’zan dushanba, ba’zi xolatlarda chorshanba, ba’zida esa juma kunlariga to’g’ri kelgan. Bu xolat gazetalarning Said Ahroriy muharrirlik qilgan davrdagi o’nlab sonlari bilan tanishilganda aniqdandi. Bosh muharrirning tashkilotchilik saloxiyati va xizmati shundaki, u gazeta atrofida muxbir hamda matbaachi mutaxassislarni to’pladi, ular tarkibini shakllantirdi. SHuningdek, u BXSРning chekka viloyatlaridan xabar to’plab gazetaga yuborib turadigan qishloq muxbirlari guruhini ham vujudga keltirdi.

¹ Наимов Н. Бухоро жадиidlари (тарихий очерклар). - Т.: Фан, 2000.

Muharririyat tarkibida faoliyat olib borayotgan muxbirlar hamda ayrim hukumat a'zolari gazeta sahifalaridagi chiqishlarida ko'p millionli Buxoro aholisi uchun yagona gazeta va uning 1000-1500 tadan oshmaydigan nusxalari etarli emasligini qayd qilishadi. "Buxoro axbori" gazetasi tirajining kam nusxada chop etilishiga poligrafiya bazasining ojizligi, nashriyot ishlarining zamon talablari asosida yo'lga qo'yilmaganligi, musulmon shriftining etishmasligi, malakali matbaachi mutaxassislarning deyarli yo'qligi, moddiy qiyinchiliklar kabi ko'pgina omillar sabab bo'lgan. Bevosita "Buxoro axbori" gazetasida bosilgan ayrim xabar va ruknlardan ma'lum bo'ladiki, matbaachi mutaxassislarni gazeta ishiga jalb qilish uchun hukumat raxbarlari hamda bosh muharrir xoriydan bu sohaning ziyolilarini taklif qilishgan. Jumladan, gazeta ma'lumotlaridan birida: "Kozondan 14 nafar matbaachi mutaxassis Buxoroga taklif qilindi. Ular davlat nashriyotida ishlay boshladilar. Biroq; tezda ulardan 9 nafari "Buxoro varajasi" (bezugak) kasaliga chalinib, hayotdai ko'z yumdi. Ko'pgina tatar mutaxassislari ishlash shart-sharoitlarining ogirligi, maosh ozligi va kasalliklar bilan bog'liq, sabablar tufayli o'z yurtlariga qaytib ketmakdalar", - deb yoziladi¹.

"Buxoro axbori" gazetasida 1921 yilning 30 iyuniga qadar chop etilgan sahifalar tahlilidan aniqdandiki, bu davrda, ya'ni S. Ahroriy muharrirligi davomida "Buxoro xabarlari", "Viloyatlarimizda" "SHarq dunyosi", "CHet ellarda", "Fan va texnika", "Hukumat tadbirlari" kabi ruknlarga asos solingan. Ayniqsa, "Buxoro xabarlari" rukni ostida BXSR va unga qo'shni bo'lgan Turkiston ASSR, XXSR, RSFSR kabilardagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayot o'zgarishlari muntazam berib borilgan.

"Buxoro axbori" gazetasining ommaviyligi va o'qimishlilikini ta'minlashda bosh muharrir Said Ahroriyning dolzarb muammolarga bag'ishlangan o'nlab maqola va badiiy ijod namunalari muhim rol o'ynadi. U taxririyatni boshqarish bilan birga gazetada bosh muharrirlik qilgan keyingi vakillardan (bundan Qori Yo'ldosh Po'latov mustasno) o'zining maqolanavisligi hamda yuksak jurnalistik

¹ Хайитов III. ва б. Татар зиёлилари Бухорода // Бухоро мавжлари. 2007. №2.-Б . 41-43.

maxorati bilan ajralib turdi. S. Ahroriy keyinchalik boshqa mas'ul vazifalarda faoliyat yuritganiga qaramay, "Ozod Buxoro" gazetasi sahifalarida ham uning bir qator ta'sirchan, davrning dolzarb muammolariga bag'ishlangan salmoqli maqolalari chop etildi. Uning maqolalarida BXSrdagi ijtimoiy muammolarning muhim bo'g'ini bo'lgan xotin-qizlar masalasi, xalq salomatligi muammolari, maorif va madaniyatga tegishli vazifalar hamda hukumat organlari ishini takomillashtirish bilan bog'liq jixatlar qamrab olingan. Said Ahroriyning "Qish keldi, tovushsizlar qotmasun" nomli maqolasida BXSrdagi kishilarning turmush tarzi, ijtimoiy ahvoli bayon qilinadi. Mamlakatda 1923 yil qishi qattiq kelganligi, badavlat xonadonlarda, korxonalarda yashayotgan uy-joysiz, iqtisodiy nochor ahvolda bo'lgan etim- esir o'g'il va qizlar ancha foizni tashkil qilishini yozar ekan,

Said Ahroriy bu masalaga hukumat idoralarining diqqatini jalb etadi. "Tovushsizlar (ya'ni xo'jayin tomonidan quvg'inga uchramaslik uchun tovush chiqarishga jur'at qilolmaydiganlar ¹⁾ SHarqdagi mamlakatlarda faqat ovqat uchungina xizmat qilib turmaydilar, balki ularga ayrim moyana berilmog'i bilan barobar yiliga ikki marotaba yozlik va qishlik kiyim beriladi, o'qitiladi, uylantiriladur", - deb yozgan muallif. Nochor va qashshoq kishilar, ayol va bolalar bir burda nonlarini yarim yalang'och, oyokyalang xolda xovuzdan suv tashib, yuk ko'tarib, chorva mollarini boqib, qor kurab, qorovullik qilib topayotganligi bilan bog'liq xaqiqiy ahvolni ifodalovchi fikrlar bildirilgan. "Xotun" maqolasida esa xotin- qizlarning haqiqiy ma'nodagi tenglikka erishmaganligi, ular orasida savodsizlik, erksizlik hamon kuchliligi bilan bog'liq achchiq haqiqat ochiq bayon qilingan. "Erkakning uylaganicha xotin ermakdur, o'yinchoqdur, qo'g'irchoqdur. Ko'ngli qanday tilasa shunday sevadur, mijg'alaydur, sindiradur va ezadur". Bu masalada Said Ahroriyning shaxsiy fikri esa olijanob bo'lib: "Xotunga hurmat bilan qaramag'on erkak tubanlardan tubandur".

¹ Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920-1924 йиллар)- Т.: "Abu Matbuot-Konsalt" 2012. Б. 28.

1923 yil 9 sentyabrda “Buxoro axbori” gazetasi Said Ahroriyning “To‘rtinchi inqilobiy yilimizdan nimalar kutamiz?” nomli yirik maqolasini bosdi. Ta’kidlash joizki, ushbu maqola BXSRning 3 yil (1920-1923 yillar) davomidagi iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, madaniy-ma’rifiy, milliy, siyosiy-harbiy sohalardagi faoliyatini tahlil qilib, kelgusida bajariladigan vazifalar to‘g‘risida baxs yuritadi. Muallif Buxoro davlat bankining faoliyati, fabrika va zavodlardagi ishlab chiqarish, shirkat xo‘jaliklari xaqida yozar ekan, o‘tgan tarixiy davrda hukumat dehqonlarga: “bug‘doy, urug‘lik, g‘alla, ho‘kiz, asbob va oqcha bilan jami 300 mln. oltin so‘mlik yordam berdi”, - degan fikrlarni keltiradi. Bu yillarda “alohida dehqonlar banki” tashkil etilganligining ahamiyati to‘g‘risida gapirib: “Bir masala bordurki, hamma dehqonlarimizni ma’naviy jihatdan tarbiya etmak, yangi usulda faniy ishlar o‘rgatmak, mashina va boshqa asbob qo‘llatib, oz zaxmat va oz chiqim bilan ko‘p maxsulot olib dehqon xo‘jaligini boy qilmakdur”, - deyilishi muhimdir. BXSR hukumatining istikbol rejasida zamonaviy texnologiya asosida qishloq xo‘jaligini vujudga keltirish, kooperatsiya tizimini taraqqiy qildirish kabi ulug‘ maqsadlar bor edi.

Said Ahroriy BXSRdagi milliy masalaga ham alohida tuxtalgan. Ayniqsa, iqtisodiy va madaniy jihatdan qoloq bo‘lgan turkman va qirg‘izlarning turmushini yaxshilash masalasidagi tadbirlarga e’tibor qaratiladi. Ma’lumki, Amir Sayyid Olimxon bilan birga va undan keyingi davrlarda 35 ming oila turkmanlar 2 mln.ga yaqin chorva mollarini haydab, tushunib-tushunmay, turli tashviqotlarga uchib, qo‘shni davlat - Afg‘onistonga o‘tib ketgan edi. Buxoro hukumati o‘zga mamlakatdagi turkmanlarni 1922-1923 yillarda o‘z yurtiga qaytarib kelish va ularning xo‘jaligini tiklashga yordam ko‘rsatdi.

BXSRdagi siyosiy va harbiy masalalarning ahvoli xaqida yozar ekan, Said Ahroriy qizil armiyachilar soni 200 ming atrofida bo‘lib (1923 yil), shundan 2 ta polk mahalliy millat vakillaridan iboratligini ta’kidlaydi. Maqolada qizil armiya askarlari va qizil militsionerlarni boqish davlat byudjetiga katta chiqim bo‘layotganligiga alohida urg‘u beriladi. Armiyada milliy mutaxassislarni

ko'paytirish choralari ko'rish kun tartibidagi muhim masala bo'lib qolayotganligi o'qtiladi.

Ko'rinib turibdiki, S. Ahroriy muharrirligi ostida chiqqan gazeta sonlaridagi maqolalar kechayotgan voqealarni ob'ektiv, tanqidiy, ayni paytda oddiy aholiga tushunarli qilib etkazishi bilan muhim manba hisoblanadi.

Hukumat muassasalarida siyosiy raxbarlarga va diplomatik xodimlarga extiyoj dastlabki yillarda kuchli bo'lganligi tufayli "Buxoro axbori"ning birinchi muharriri S. Ahroriy 1921 yil iyunda Ozarboyjon Respublikasiga BXSРning muxtor vakili qilib yuborildi.

Said Ahroriydek tajribali jurnalistning mas'ul vazifaga o'tkazilishi bois "Buxoro axbori" gazetasi oldida istiqbolda ushbu shaxs singari salohiyatli va gazeta saviyasini avvalgi darajada saqlab qolib, uni yanada oshirishga yo'naltira oladigan muharrirga zarurat to'g'ildi. Navbatdagi bosh muharrirlik mas'uliyati mashhur adib va shoir Abdulhamid Sulaymon o'g'li CHO'lpon zimmasiga yuklandi. Gazetaning 41-sonidan 67-soniga qadar (salkam olti oy, 1921 yil 30 iyun - 1922 yil 25 yanvar) unga CHO'lpon muharrirlik qildi. U shaxsan ustozlari Fitratning taklifi bilan Buxoroga kelgan. Ikkinchidan esa, Buxorodagi siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlar yozuvchi va publitsist CHO'lponni juda qiziqtirar edi¹. Xullas, CHO'lponning tabiatan yangilikka intiluvchanligi, o'zgarishlarni o'z ko'zi bilan ko'rishga harakat qilishi, maslakdoshlari bilan birga bo'lish kabi maqsadlari uning Buxoroga kelib, o'z ijodiy faoliyatini davom ettirishiga sabab bo'lgan. 1921 yilning ikkinchi yarmida gazeta haqiqiy xalq minbariga aylandi. Bu davrda "Buxoro axbori"da "Maorif ishlarimiz", "Iqtisodiy ishlarimiz", "Ochiq xatlar", "Bizdan tashqarida", "Qora taxtaga", "Mubohasalar", "Siyosiy aloqalar", "Firqa turmushidan", "Kasabachilik harakati" kabi yangidan-yangi ruknlarga asos solindi. Ayniqsa, "Ochiq xatlar" va "Mubohasalar" rukni ostida chop etilgan xabar va maqolalar BXSРda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy jarayonlarni tanqid tig'i ostida yoritib, gazeta o'quvchilarini bahs va munozaraga chorladi.

¹ Алиев С. Чулпон назиди Бухоро //Бухоро хакикати. 1997 йил 20 декабрь.

Abdulhamid CHO‘lponning muharrirlik davrida ijodkorning kasbiy mahorati tufayli adabiy-badiiy muhit yuksak pog‘onaga ko‘tarildi. “Adabiyot”, “Feleton”, “Kichik xangoma” kabi bir qator ruknlar tashkil etildi. Mazkur ruknlarnng gazetxonlarga manzur bo‘lishida CHO‘lpon ijodidan namunalar ham berib borilishi muhim rol o‘ynadi. Jumladan, shoirning “Adabiyot” rukni ostida gazetaning bir qator sonlarida “Ag‘darilish”, “Xalq”, “Tarixdan”, “So‘z”, “YUrt yo‘li”, “Og‘rig‘onda”, “O‘liqlarg‘a qarshi” she‘rlari e‘lon qilindi. CHO‘lponning “Matbuot - kuchlik bir davlatdur”, “Hukumat nashri” kabi maqolalari bevosita matbaachilik faoliyatini va davriy matbuotning ta’sir kuchini oshirish maqsadlariga qaratilgan. Gazeta sahifalarida muharrirning “Hukumat qurultoyi”, “Adabiyot kechasi”, “Teatr-tomosha”, “Ergashish”, “Tizgin talash” kabi maqolalari bosilishi esa o‘zining ijtimoiy xarakteri bilan ahamiyatlidir. Gazetada chop etilgan she‘r va maqolalari uning “CHO‘lpon”, “Qalandar” kabi taxalluslari ostida bosilgan. Ayrim hollarda esa “Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li” ismi-sharifi yozib qo‘yilganligining guvohi bo‘lindi.

CHO‘lponning “Buxoro axbori”da e‘lon qilingan ijod namunalarini 3 guruhga bo‘lish mumkin: she‘riy ijod namunalari, davr ruxini tanqidiy aks ettirgan publitsistik maqolalar hamda bevosita matbuotchilik tarixi muammolariga bag‘ishlangan asarlar. Uning “Matbuot - kuchlik bir davlatdur” maqolasida aynan matbuot organlarining jamiyat tarakkiyotidagi roli xaqida fikr yuritiladi. “Matbuot xalqning tilidur... Gazeta hukumatning tilidur. SHuning uchun butun hukumat muassasalarining qilgan ishlarini va qilib to‘rganlarini xabar berib, xalqqa gapirib turishi kerakdur”, - deb yoziladi.

Bu kabi maqolalarda gazeta hayotning dolzarb muammolarini tabiiy ravishda bayon qilsa foydadan holi bo‘lmasligiga e‘tibor qaratilgan. “Buxoro axbori” xalq ommasi tushunadigan voqea va xabarlarni e‘lon qilishi kerakligi, feleton janrini, badiiy ruknni kuchaytirish lozimligi maqolalarda alohida

ta'kidlanadi. CHo'lpon gazetaning qudrati va ahamiyatini ta'kidlab, "dunyoda besh kuchlik davlat bo'lsa oltinchisi, oltita bo'lsa ettinchisi matbuotdir"¹, - deb yozadi.

Gazeta sahifalarida bosh muharrir Buxorodagi barcha ziyolilarni, qalamkashlarni, muxbirlarni munozaraga chorlab, "Buxoro axbori" sahifalari jamiyat tarakkiyotiga xizmat qiluvchi xar qanday erkin fikrlar uchun ochiqligini qayta - qayta ta'kidlaydi. "O'rtoq Qilichzoda (BXSR yoshlar ittifoqining raisi) ning javobi", "So'nggi so'zim (o'rtoq Qilichzodaga javob)" kabi maqolalarning e'lon qilinishi diqqatga sazavordir.

SHuni qayd etish kerakki, ma'lum sabablarga ko'ra "Buxoro axbori" ning 68-sonidan (1922 yil 4 fevral) bosh muharrir o'zgargan bo'lsa-da, uning sobiq muharriri gazeta bilan aloqani uzmaydi. Keyingi sonlarda CHo'lpon ham, Said Ahroriy singari, gazetada maqolanavislikni davom ettirib, uning respublika ijtimoiy - siyosiy muammolarini yoritishga qaratilgan 3 ta yirik maqolasi chop etilganligi aniqdandi.

1922 yil 4 fevraldan boshlab Ziyo Usmoniy "Buxoro axbori"da bosh muharrirlik vazifasini bajara boshlagan. U "Buxoro axbori"ning 1922 yil 4 fevraldan 1922 yil 27 mayga qadar chiqib to'rgan 68-87-sonlariga muharrirlik qilgan. CHop etilgan gazetalar, ulardagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, bu davrda "Buxoro axbori" ning umumiy tiraji 1000 nusxada bo'lib, ayrim sonlari 1500 nusxada ham bosilgan. Lekin gazetaning xar oyda chop etilishi jarayoni bir tekis bo'lmagan. Ayrim oylarda gazeta 4 marta, uning muharrirligi davrining so'nggi 2 oyida (aprel, may) 3 martadan chop etilgan. Ziyo Usmoniy muharrirlik qilgan qiska davrda (salkam 4 oy) gazeta sonlarining oylik nashrlari 5-6 martadan 3-4 martagacha tushib qolishi BXSR hukumatining moliyaviy ahvolidagi tanglik bilan ham bog'liq. Ushbu xolatni gazeta sahifalarida muharrirning bevosita o'zi tomonidan chop etilgan bir qator maqolalari mazmunidan bilish mumkin. Ziyo Usmoniy "Matbuotimiz nima uchun yuksalmaydur" hamda keyinchalik chop ettirgan "Matbuot xaqinda yana bir-ikki so'z" kabi salmoqli maqolalarida BXSR

¹ Дусткараев Б. Чулпон: газета - еттинчи давлат // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2004 йил 22 октябрь.

matbuotining mas'uliyatini barmoq bilan sanarli 2-3 nafar muxbir tortayotganligi, gazeta ishida ishtirok qiladiganlar oz sonliligi xaqida kuyunchaklik bilan yozadi. Hatto "Adabiyot bilan yashagan va shu bilan o'sgan va shu yo'lda ko'plab xizmatlar ko'rsatgan Fitrat ham gazetaga maqolalar yozmaganligi"¹ni tanqid qiladi. Ziyo Usmoniy "Buxoro axbori" xalq sevib o'qiydigan, e'tirof etadigan gazeta bo'lishi zarurligini o'z maqolalarida o'qtirib o'tadi.

Ziyo Usmoniy "Buxoro axbori"da uzoq muddat muharrirlik qilmaganligining sababi mazkur gazetaning 87-sonida (1922 yil 17 iyun) "Iste'fo" sarlavxasi bilan bosilgan shaxsiy arizasida ko'rsatilgan. Bosh muharrir bir yarim yil (1921-1922) davomida nashriyot va gazetada tinimsiz ishlaganligi va qattiq kasalga chalinganligi, bu esa muharrirlik mas'uliyatini bajarishga imkon bermayotganligini xabar qiladi. "Buxoro axbori" gazetasida Ziyo Usmoniydan so'ng gazetaning muxbirlaridan biri Ostonqul Abdulqiyomov taxririya boshqaruvini o'z qo'liga oldi. U bosh muharrirlik qilgan salkam 4 oylik muddatda (1922 yil iyun- sentyabr) "Buxoro axbori"ning nashr nusxasi (1500 ta) o'z holicha saqlanib, bir oy davomida chop etilishi sonlari esa 2 barobarga qisqarib ketadi, ya'ni oyida gazeta atiga 2 – 3 martadan chop etilganligi aniqlandi. Ostonqul Abdulqiyomov "Byxopo axbori" gazetasida 3-4 maqolasi bilan ishtirok qilgan holos. Ostonqul Abdulqiyomov gazetaning 99-soni (1922 yil 14 g' sentabr)ga qadar bosh muharrirlik vazifasida ishlagan. Tarixiy jarayonlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, 1922 yilda BXSРda ichki harbiy to'qnashuvlar avj olgan, asosiy e'tibor harbiy ehtiyojlarga qaratilgan. Bu holat matbaachilik ishini moddiy jihatdan yo'lga qo'yishga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

Ziyo Usmoniy va Ostonqul Abdulqiyomov gazetada muharrirlik qilgan davrda matbuotda pasayish yuz bergani kuzatildi. Matbuotning jamiyatdagi rolini hamda "Buxoro axbori" gazetasining Said Ahroriy va Cho'lpon muharrirligi davridagi obru-e'tiborini ko'tarish maqsadida bo'lsa kerak, bevosita hukumat

¹ Ражабов Қ., Рахмонов К "Бухоро ахбори" ва "Озод Бухоро" газеталарида маориф масаласининг ёритилиши // Ўзбекистон тарихи ва маданияти (Республика илмий-амалий анжумани материаллари). Тошкент -2011. - Б. 154-160.

a'zosi, BXSРda birinchi maorif noziri bo'lgan Qori Yo'ldosh Po'latovga bosh muharrirlik qilish mas'uliyati yuklatildi. YAngi bosh muharrir hukumatdagi raxbarlik lavozimi bilan birga bu vazifani ham davom ettirgan. U bir paytning o'zida BXSР maorif noziri lavozimida ishlab to'rgan edi. Qori Yo'ldoshning gazetadagi muharrirlik faoliyati roppa-rosa bir yil davom etib, "Buxoro axbori"ning 100-204-sonlari uning raxbarligida chop etilgan davrda (1922 yilning 21 sentyabridan 1923 yil 21 sentyabrigacha) gazeta 1 oyda 7-8 marta chop etilishi yo'lga qo'yildi, tiraji ham 2000-2500 nusxaga etkazilib, uning barcha viloyatlarga bir tekisda tarqatilishi qat'iy nazorat ostiga olindi.

Qori Yo'ldosh Po'latov hukumat raxbarlaridan biri sifatida 1922-1923 yil qish faslida RSFSР shaxarlaridan Moskva va Petrogradga sayoxat qilib, safari davomida maorif tizimini takomillashtirishga xizmat qiladigan vazifalar bilan birga matbaachilik va nashriyotchilikning moddiy asoslari hamda zamonaviyligini ta'minlaydigan asbob-uskunalar keltirishga ham erishgan. Bu xaqda muharrirning "Buxoro axbori" gazetasi 5ta sonida ketma-ket chop etilgan "Yo'l xotiralari" deb nomlangan maqolasidan bilib olish mumkin. Gazetaning chop etilishiga mas'ul bo'lgan shaxslar tomonidan Rossiya safaridan sintografiya olib kelishga muvaffaq bo'lindi. Bu tadbir "Buxoro axbori" gazetasining 1923 yil bahoridan boshlab fotolavxalar bilan chop etilishini ta'minladi¹. Sintografiyani o'rnatish va ishga tushirish, doimiy ishlab turishini ta'minlash maqsadida tatar matbaachi va noshir ziyolilardan foydalanilganligi ham muhimdir². Q. Y. Po'latov gazeta faoliyatini boshqargan davrda musulmon shrifta, gazeta poligrafiya bazasi, muxbir xodimlar bilan ta'minlanishi masalalarida ham ijobiy siljishlar kuzatiladi. Ayniqsa, Tatariston ASSРdan katta miqdorda musulmon shriftining keltirilishi muhimdir.

1923 yilning yozida Buxoroga Germaniyadan musulmoncha xarf terish mashinasining keltirilishi noshirchilik sohasida burilish yasadi. YUqoridagi omillar "Buxoro axbori" gazetasini bundan buyon 4 sahifada emas, balki 8 sahifada chop

¹ Иброҳимов И. Маърифат зиёси // "20.000-учрашув". "Бухоронома" газетаси 20.000-сони чиққанига бағишланган публицистик рисола. - Бухоро, 2007. - Б. 21.

² Хайитов Ш. Татар зиёлилари Бухорода // Жамият ва бошқарув. 2007. №3. - Б. 125-126.

etish imkonini berdi. Gazeta xajman kengayibgina kolmay, balki mazmunan boyidi, o'quvchiga ko'proq manzur bo'ldi, undagi xabar va maqolalarning dolzarbligi oshdi. Ayniqsa tanqidiy, real hayotni tasvirlovchi materiallarning gazeta sahifalarida chop etilishi respublikaning turli viloyatlarida gazetxonlar soni kupayishiga olib keldi. Eng faol maqolanavislardan biri Qori Yo'ldosh Po'latovning o'zi bo'lib, gazeta sonlarida ko'plab maqolalar e'lon qilgan. Qori Yo'ldosh Po'latovning "Doxiliy qarzga yozilingiz", "Muhim vazifamiz", "Bugungi vazifamiz", "Poraxo'rlik bilan kurash", "Mustaqil bir mamlakat qanday bulur?", "Soliq xaqinda bir-ikki so'z" kabi maqolalari BXSRning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini o'rganishga yordam beradi.

Qori Yo'ldosh Po'latovning "Soliq xaqinda bir-ikki so'z" maqolasi ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, BXSR hukumati aholidan ushr, zakot singari soliqlar oladi. Bu soliqlar miqdori uncha katta bo'lmasa-da, 2 yil soliqsiz yashab kelgan xalqqa qattiq botishi tabiiy edi. Bunday vaziyatda aholiga matbuot orqali soliq solishdan maqsad nima ekanligini oddiy va jun qilib tushuntirish kerak edi. Bu xaqda Qori Yo'ldosh Po'latov: "Xozirgi hukumat soliqni o'zining safosi uchun yig'masdan, balki xalqni o'qitmok, xarob bo'lgan shaxar va qishloqdarni ta'mir etmoq, turli kasalliklar bilan kurashmoq, xalq xo'jaligini isloh qilmoq, yurti iqtisodiy turmushini ko'tarmoq, xalqni tinchligini muxofaza etmoq kabi oliy maqsadlar uchun yig'naydur", - deb yozadi. Ushbu fikrlar orqali insonparvar hukumatning soliq siyosati qanday bo'lishi kerakligi bilan bog'liq moxiyat ochib berilgan. O'z yurtini sevgan va uning taraqqiy qilishini istagan xar bir inson soliqni yurt va hukumat xaqi deb tushunishi maqola mazmunida ifodalangan.

"Buxoro axbori" gazetasining moddiy va texnikaviy bazasini bir qadar mustaxkamlashga erishgan hamda gazeta xaftada muntazam 2 marta chiqib turishini ta'minlashga katta xissa qo'shgan bosh muharrir Q.Y. Po'latov respublika hukumati idoralaridagi mas'ul vazifalarga (BXSR mehnat shurosi raisi, muxofaza noziri) jalb qilinganligi sababli gazeta tashkil topganidan buyon ancha vaqt faol muxbirlardan biri bo'lgan Qosim Sorokin bosh muharrirlik lavozimiga tayinlanadi.

U “Buxoro axbori” gazetasiga 204-sondan, ya’ni 1923 yil 21 sentyabridan muharrirlik qilishni boshlagan. Sorokinning bosh muharrirlik davri “Buxoro axbori”ning 204-213 sonlari (1923 yil 16 oktyabrga qadar) hamda yangi “Ozod Buxoro” gazetasi chop etila boshlagach uning 1-sonidan 87-soniga qadar 8 oydan ortik (1923 yil 21 oktyabr-1924 yil 5 may) bo‘lgan muddatni o‘z ichiga oladi. Demak, uning muharrirligi ostida “Buxoro axbori” gazetasining bor-yugi 9 ta soni chop etilib, gazeta shakli va mazmunida deyarli o‘zgarishlar ro‘y bermadi.

Xullas, 1920 yil 9 sentyabrdan 1923 yilning 16 oktyabrigacha “Buxoro axbori” gazetasining 214 soni chop etilgan. Gazeta dastlab 4 sahifada 1000-1500 nusxada chop etilgan bo‘lsa, 1922 yil kuzidan boshlab, u 7-8 sahifada xaftada 2-3 marta, oyiga 8-10 marta, 2000-2500 nusxada nashr etildi. “Buxoro axbori” gazetasi oddiy xolatda chop etilishidan tortib, fotolavxalar va zamonaviy texnik vositalar bilan chiqarilishiga qadar bo‘lgan bosqichni bosib o‘tdi.

“Buxoro axbori” gazetasi BXSRning ichki va tashki siyosati, o‘z davrining ijtimriy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy jarayonlari va muammolari masalalarini o‘nlab ruknlar ostida imkon qadar xolisona hamda tanqidiy rux bilan yoritdi.

II BOB. BXS RDAGI IQTISODIY VA IJTIMOIIY MASALALARNING MATBUOT TALQINI.

2.1 Matbuot sahifalarida BXS R iqtisodiyotiga oid ma'lumotlar.

Matbuot BXS Rdagi iqtisodiy jarayonlar va o'zgarishlar, uning yangicha tarixiy sharoitdagi xukukiy asoslari xaqida ma'lumotlar beruvchi muhim manbadir. BXS R agrar mamlakat bo'lib, axolining asosiy qismi qishloq xo'jaligi bilan mashg'ul bo'lgan. Gazetalarning 1920-1921 yillardagi o'nlab sonlarida chop etilgan maqolalar va xabarlar orqali avvalo agrar munosabatlarni yo'lga qo'yishda maxsus ziroat ishlari kengashi tashkil etilganligi, uning vazifalari hamda mutasaddi vakillari to'g'risida ma'lumotga ega bo'linadi. BXS R hukumati tarkibida ziroat (qishloq xo'jalik) ishlari nozirligi tashkil etilib, Mirzo Abdulraxhim YUzofzoda (1880-1937) ushbu nozirlikni 1920 yilning kuzidan 1921 yil yanvariga qadar boshqardi. Undan so'ng ushbu mas'ul vazifada Porso Xo'ja (1868-1937) va Safo Juraboevlar faoliyat yuritishgan.

Agrar munosabatlarni tartibga solish, dehqonlarga erlarni bo'lib -berish masalasida hukumat tomonidan 1920 yilning kuzida va 1921 yil davomida bir qator qonun, qaror, farmon, buyruqlar chiqarilgan. Er to'g'risidagi qonun (dekret) loyihasi dastlab Buxoro Kompartiyasi MK majlisida (1920 yil 20 sentyabr), sungra BXS R Inqilobiy qo'mitasi (Markaziy revkom) majlisida (1920 yil 24 sentyabr) muhokama qilingan. Ushbu qonun agrar sohadagi dastlabki xujjat bo'lib, unda BXS R iqtisodiy siyosatining tashkiliy asoslari ko'rsatilgan¹. Ziroat nazoratining er shu'basi tomonidan Buxoro atroflaridagi amir-amaldorlarga tegishli bo'lgan 4000 tanob er musodara qilinib, ersiz dehqonlarga 50-60 tanobdan bo'lib berilganligi, Buxoro tumanlarida 1000 tanob er ro'yxatga olinib, ishchi xayvonlar va asboblari bilan ersiz, kam erli dehqonlarga taqsimlanganligi, 1921 yil yozida ziroat

¹ *Ражабов К., Бухоро Халқ Республикаси: монархиядан демократия сари дастлабки кадамлар (1920-1924 йиллар) Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммоларига янги чизгилар / Даврий тўплам. № 2. - Т.: Шарк, 1999. - Б. 153.*

nazoratiga 96 million so‘m mablag‘ ajratilganligi bilan bog‘liq raqamlar qayd qilinadi.

BXSRda qishloq xo‘jaligi rivojini sun‘iy sug‘orishsiz tasavvur qilish qiyin. Hukumat bu masalada yuritgan siyosat va tadbirlar ham gazetalarda bayon qilingan. Ma‘lumki, BXSR hududidagi ekin ekiladigan erlar asosan Zarafshon daryosi suvi bilan sug‘orilgan. Gazeta materiallarida ulkani suv bilan ta‘minlash muammosi bir necha bor Turkiston ASSR va BXSR o‘rtasida muhokama qilinganligi, masalani ijobiy xal etish uchun ikkala respublika hukumati a‘zolaridan iborat “3 kishilik”, “5 kishilik” komissiya hay‘atlari tuzilganligi xaqida ma‘lumotga ega bo‘linadi. Xabarlardan birida: “1921 yil shartnomasida Samarqandga qarashli 72.885 desyatina er Zarafshondan sug‘orilmaydi, keyin tekshirish natijasida anglashilgankim, ul erlar Zarafshon suvi bilan sug‘orilayotgan ekan”, - deb yoziladi. Nihoyat, Samarqand va Kattaqo‘rg‘on shaharlarida ikki respublika o‘rtasida olib borilgan muzokaralardan so‘ng Narpaydaryo ustidan nazorat BXSR qo‘liga o‘tadi.

Matbuot maibalari ma‘lumoticha, BXSR hukumati mavjud bo‘lgan yillarda xam Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davridagi Zarafshon daryosi suvining 1/3 qismi Buxoroga berilishi bilan bog‘liq shartnoma o‘z kuchida qolgan. Bu esa BXSR hududini suv bilan ta‘minlash hamda yangi erlarni o‘zlashtirib, dehqonchilik maxsulotlari miqdorini oshirish imkoniyatini chegaralagan. SHuning uchun 1923-1924 yillardagi gazeta maqolalarida Amudaryo suvini BXSR erlariga yo‘naltirish, suv inshootlari barpo etish bilan bog‘liq ma‘lumotlar ko‘p bayon qilingan¹.

Gazetaning 1924 yil 2 aprel 70-sonida “Buxoroda ziyod suv yo‘q” nomli maqola berilib, unda suv xo‘jaligi sohasiga malakali mutaxassislarni jalb qilish, Amudaryo suvini chig‘ir o‘rniga mashinalar yordamida yuqoriga ko‘tarib berish,

¹ Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920-1924 йиллар)- Т.:“Abu Matbuot-Konsalt” 2012. Б. 55.

Amudaryodan ariq va kanallar chiqarish ishini jonlantirish masalalari ustida fikr yuritilgan.

“Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalaridagi suv muammosi bilan bog‘liq maqola, xabarlar, hukumat qarorlari tahlil qilinar ekan, respublikaning dastlabki yillarida bu masalaga e’tibor kuchli bo‘lib, 1921-1922 yillarda esa bu haqda ma’lumotlar kamrok keltirilganligi mamlakatdagi siyosiy va harbiy vaziyat bilan bog‘liqdir.

BXSR hukumati davrida qizil armiyaga qarshi kurash tufayli irrigatsiya inshootlari ishdan chiqdi yoki buzib tashlandi. Ariq va kanallarni loyqa va chim bosib, ular yaroqsiz xolga kelib qoldi. Hosildor erlar tashlandiq joylarga aylandi. SHuning uchun respublikada qishloq xo‘jaligining muhim tarmog‘i bo‘lgan paxtachilik sohasi xam inqirozli xolatga tushgan edi. Bu bilan bog‘liq ma’lumotlar davriy matbuotda chop etilgan. “Buxoro axbori” sahifalarida 1921 yilda paxta maydonlari amir davridagiga nisbatan 30 000 tanobga kamayganligi, 1893 yildan 1917 yilga qadar Buxoroda paxta eqiladigan erlar maydoni 300 000 tanobgacha bo‘lib, undan olinadigan daromad 25 mln. oltin so‘mni tashkil etganligi" xaqidagi ma’lumotlarni o‘qish mumkin.

Gazeta materiallari o‘rganilganida paxta hosilining keskin kamayganligi nafaqat sun’iy sug‘orish inshootlari qarovsiz va yaroqsiz bo‘lib qolganligi sababli, balki Buxoro dehqonlari foydalangan mehnat qurollarining oddiy kurak va ketmondan iboratligi, etishtirilgan hosil o‘z vaqtida sotilmaganligi, paxta urug‘i va boshqa harajatlar uchun dehqonlarga yordam puli o‘z vaqtida berilmayotganligi kabilar natijasida ham kelib chiqqanligi qayd qilinadi. Tovar-pul munosabatlarining inqirozi tufayli paxta maxsulotini barter usulida sotish dehqonlarni xonavayron qildi. CHunki sanoat maxsulotlari qimmat va taqchil bo‘lgan.

Gazetalardagi “Xitobnoma: Paxta va g‘o‘za ekinini ta’rif qildirmoq hususinda”, “Paxta mavsumi”, “Buxoroda paxtachilik ishini ko‘tarmoq uchun chiqarilg‘on qaror-xitobnoma - 21”, “Butun kuch - iqtisodiy ahvolimizni ko‘tarish

maydoniga”, “Paxtani qazodan saqlash masalasi”, “Buxoro Jumxuriyatidan paxta chiqarish xaqida”, “G‘uza savdosi ochiqdur”, “Dallollar yordamidan foydalanish masalasi”, “Paxta mavsumiga xozirlik”, “Buxoro dehqonlariga qarz berish”, “Bunak masalasi”, “Bunak bermakni ma’n qilmoq xususinda” kabi maqolalar respublikada paxtachilikni rivojlantirish iqtisodiyotni tiklashning muhim omili bo‘lganligidan dalolat beradi. Arxiv xujjatlaridan birida ma’lumot berilishicha, 1923 yil yozida O‘rta Osiyo qishloq xo‘jalik bankining Buxoro bo‘limi ochildi. U Buxoroda paxtachilikni rivojlantirish uchun kredit shirkatlari tashkil etishga qaror qildi. 1923 yilda bunday shirkatlardan 7 tasi tuzildi.

1924 yil 1 iyulga kelib BXSReda qishlok, xo‘jaligi kredit shirkatlarining soni 64 taga etdi, ularga 9688 kishi a‘zo bo‘ldi.

1924 yili “Ozod Buxoro” sahifalarida paxta ekuvchi dehqonlarga imtiyozlar berish, paxtaning yangi amerika navini ko‘proq etishtirish, paxta banklari ochish, dehqonlarni kooperativ tashkilotlar atrofida birlashtirish, paxta shirkatlarini tuzish va kengaytirish masalalarining keng miqyosda berilishi BXSReda iqtisodiy jihatdan xom ashyo etkazib beruvchi mamlakatga aylanib borganligini anglatadi.

Respublikada amerika navli paxta ekish afzalligi bir qator maqolalarda qayd qilingan. “Azaldan g‘o‘za ekib kelar edik, g‘o‘za amrikoni paxtaga nisbagan kam foyda berar ekan. 1 tanob erga g‘o‘za ekilg‘onda 20 pud beradi. Buning pudini 2,5 sumdan sotg‘onda 50 sum buladur. 1 tanob erga ekilg‘on amrikoni urug‘ 15 pud paxta berib, pudini 5 sum sotgonda 75 sum buladur”.

1924 yilda respublika viloyatlarida paxta ekiladigan maydonlar nisbati (tanob xisobida) gazetaning “Bu yil bizda paxtachilik ishlari” nomli sarlavxa ostidagi maqolada aniq keltirilgan¹.

Manbalar ma’lumoticha, hukumat qancha tirishmasin, izdan chiqqan paxtachilik sohasini o‘zi tuzgan istiqbolli rejalar va loyixalar asosida tiklay olmagan. Mamlakatda paxta hosili Birinchi jahon urushidai oldingi darajaga

¹Рахмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920-1924 йиллар)- Т.:“Abu Matbuot-Konsalt” 2012. Б. 58.

ko'tarila olmaydi. 1923 yil ko'ziga kelib ekin ekiladigan erlarning 80 foiziga urug' qadalgan va hosildorlik darajasi xam past bo'lgan.

Gazetalarning ma'lumotlaridan BXSr xujaligida paxtachilik sohasidan keyin g'allachilik tarmog'i muxim o'rin tutganligi angaashiladi. Birok respublika uz axolisini o'zida etishtirilgan g'alla bilan ta'minlay olmagan. Bu xaqda "Buxoro axbori" gazetasida yozilishicha: "Buxoro hukumati tomonidan turli joylardan olingon bug'doy (200.000 pud) Buxoroga kelmakda. 44 vagon Peterskiydan, 21 vagon Orenburg va Orskdan Buxoroga uzatilib, xozirda 6 vagon etib kelgon"; "Volga-nakliyot" shirkati vositasi bilan Krasnovodskka 2 paroxod bug'doy kelgon. SHundan 680.180 pudi Buxoroga yuborilgon"; "Savdo-sanoat nazoratining tashabbusi bilan yakin kunlarda Turkiston Jumxuriyatidan Buxoroga 100.000 pud xdr turli un kelishi kutiladur". Demak, ma'lumotlardan aniq bo'ladiki, paxta xom ashyosi evaziga chetdan (asosan RSFSRdan) bug'doy keltirilishi boshlangan.

Kdpllok xo'jaligining muhim tarmoqlaridan biri chorvachilik bo'lib, uning korakulchilik tarmog'i xaqida gazetalarda ko'plab maqolalar uchraydi. CHorvachilikning xolati xam respublika yillarida amirlik davri darajasiga ko'tarilmaganligi maqola va xabarlardan ayon bo'ladi. Masalan, " 1890 yilda butun mamlakatda turli nael.kuy hamda echkilar 800.000 adad bo'lsa, 1916 yilda 2,5 mln.ga qadar oshgondur. Bugun (1923 yil) kuy va echkilar soni 500.000 dan ortik emasdur, ya'ni 1916 yilga nisbatan 5 barobar kamayib ketgon", - deb yoziladi "Buxoro axbori"da. "Ozod Buxoro"ning 7-sonidagi "Buxoroda korakulchilik ishi" maqolasida esa: "20-asrning boshlaridan 1913 yilga qadar amirlikda xar yili 1.500.000-2.000.000 donagachakorakulteri etishtirilgon. 1920 yilga kelib, bu raqam 200.000 donaga tushib kolgon. Faqatgina 1922 yilda bu sohada biroz jonlanish bo'lib, 800.000 dona korakul terilar etishtirilgon", - tarzidagi ma'lumotlarni o'qish mumkin.

Mazkur maqola va xabarlar bilan tanishilar ekan, korakulchilik inqiroziga kuylar sonining kamayishi, ichki urushlar tufayli korakul terilarini xorijga chiqarish keskin qisqarishi, ularga davlat tomonidan YUqori boj belgilanishi kabi

omillar sabab bo'lgani anglashiladi. 1920-1922 yillarda Korakul terisi etishtirishdan daromad olmagan turkmanlar ularni oddiy kuylardek suyib yukotganligi, xususiy tadbirkorlar esa uz mollarini Afg'oniston orqali Angliya bozorlariga yashirin ravishda chiqarganliklari bilan bog'liq qimmatli ma'lumotlar keltiriladi.

“Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarining bir qator sonlaridagi qishloq xo'jaligi maxsulotlari narxi bilan bog'liq ma'lumotlar orqali axolining turmush darajasi pasayib, narx- navolar oshib ketganligidan xabardor bo'linadi.

YUqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, 3 yil davomida asosiy qishloq xo'jaligi maxsulotlarining narxi mutgasil usib borgan, pulning kadsizlanishi jarayoni kuchaygan.

Qishloq xo'jaliginiig ipakchilik, sabzavotchilik, bogdorchilik, polizchilik kabi sohalarida xam ko'zlangan natijalarga erishilmaganligi gazetalaridagi ma'lumotlarda ochib berilgan.

BXSR iqtisodiyotida muhim o'rin tutgan vaqf mulklariga munosabat masalasi xam gazetalaridagi maqola va xabarlarda berib borilgan. Bu masala yangicha tarixiy sharoitda alohida loyixaga talab va extiyojni vujudga keltirdi. Mazkur loyixa Abdurauf Fitrat tomonidan 1922 yilning iyun oyida ishlab chiqilgan bo'lib, u 19 moddadan iborat. Fitratning “Vaqf ishlari xaqidagi loyixa”si “Buxoro axbori” gazetasida tulaligicha bosilgan. Loyixa vaqf mulklarini hukumat soligidan ozod etib, ulardan faqatgina ushr soligi olishni sakdash, vaqf idorasini 5 ta shu'baga bo'lish (diniya, ilmiya, moliya, ijara, xo'jalik), asosiy vaqf daromadlarini 6 kismga taqsimlash (masjid va masjid ishlari, maktab va kutubxona, maxkama, oshxona, avlodiy, Makka vaMadinavaqflari), mutavallilar faoliyatini nazorat qilish, vaqf mudiriyati xazinasini vujudga keltirish kabilarni uzida mujassamlashtirgan.

Gazeta ma'lumotlariga qaraganda, Buxoro, Qarshi, CHorjuy, Karmana viloyatlarida vaqf idorasiga qarashli 276.737 tanob erlar borligi, bundan tashqari vaqf idorasi karamogida 57 ta saroy, 10 ta hammom, 23 ta tegirmon, 24 ta bozor

joyi, birgina Buxoro shahrida 1769 dukan hamda 262 ta xovli borligi, 1923 yil vaqf mulklaridan 4.128.871 tanga hamda 12.212 botmon bug‘doy olinganligi qayd etiladi.

Vaqf masalasini xal qilish uchun respublika tarixida birinchi marta 1923 yil oktyabr oyida Butun Buxoro vaqf qurultoyi chaqiriladi. Qurultoy ishida hukumat rahbarlaridan Fayzulla Xo‘jaev, Porso Xuja, Abdulla Raximboevlar ishtirok qilganlar. Qurultoy kun tartibiga 6 ta asosiy, 4 ta qo‘shimcha , jami 10 ta masala qo‘yildi. Qurultoy faoliyati, unda tinglangan ma‘ruzalar, qabul qilingan qarorlar “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarida batafsil bayon qilingan. Vaqf idorasi mudirining xisobotida Buxorodagi vaqflardek kup daromadli vaqflar xech bir mamlakatda bo‘lmaganligi qayd qilinadi.

Vaqf erlari va vaqfkor dehqonlar masalasi bilan bog‘liq maqolalarda erlarning 70-80 foizi zikrlanmay qolganligi, ijaradorlarning yashirin soliq talab qilayotganligi, hosilning bir qismi eski xo‘jayinlariga xufiyona etkazilayotganligi kabi kamchiliklar ochib tashlanadi.

BXSR hukumati mahalliy xunarmandchilikni yo‘lga qo‘yish yuzasidan respublikaning birinchi yilidayokmaxsus buyruqdar qabul qilgan. 1920 yil 17 oktyabrdagi 22-raqamli buyruqda: “Mamlakatda fabrikalar yukligiuchun fukarolarni kiyim-bosh bilan ta‘minlash maqsadinda paxta iplarini mahalliy xunarmand tukimachilarga berib, kiyim tiktirish choralarini ko‘rish qayd kilingon”. Undan oldingi 1 oktyabr buyrug‘ida kiyim-bosh va harbiy asboblari tayyorlash korxonalarini ochish savdo-sanoat nazorati zimmasiga yuklatilgan. Demak, hukumat kasabachilikni sakdab kolishdan manfaatdor bo‘lgan.

Respublikada teri va teri buyash zavodlari, sovun zavodi, ipakchilik korxonalari hamda yog-moy va paxta zavodlari ko‘rish, eskirib qolgankorxonalarinita‘mirlashbylan bog‘liqchoralar ko‘rish “Buxoro axbori” gazetasining “Iqtisodiy ishlar” ruknidagi o‘nlab xabarlarida qayd qilinadi. BXSRda milliy sanoat asoslarini yaratish uchun bo‘lgan o‘rinishlar muvaffakiyatsiz chiqqanligi matbuot nazaridan chetda kolmagan. Matbuotda BXSR hududida

binolar, imoratlar, zavod va fabrikalar, elektr stansiyasi bino qilish maqsadida 1-Buxoro sanoat shirkati barpo etilayotganligi qayd qilinadi¹.

Paxtachilik sanoati bilan bog'liq ma'lumotlar gazetalarda kup uchraydi. Xabarlarida: "CHorjuydagi paxta zavodi xar 24 soatda 2 vagonga qadar g'o'za va paxtani tozalamakda. paxta xom ashyosi etishmayapti. Karmanadagi paxta zavodi ta'miroti 1923 yil 12 fevralda yakunlanadur"; "YAngi Buxoroda to'xtab kolgoi paxta zavodlarini ishga tushirish uchun maxsus mutaxassislar yuborilgon"; "Paxta tozalayturgon zavodlar Buxoro shahrida bador faslining oxiriga qadar ishga tushadur", - degan turli- tuman ma'lumotlar keltiriladi.

Transport vositalarining mamlakat viloyatlari buylab erkin xdrakat qilishi uchun yo'llarga tosh yotkizish, daryo va kanallar ustida kupriklar ko'rish masalalarigaxam maxsus e'tibor berilgan. "Buxoro axbori"ning 1922 yilgi sonlarida yo'l inshootlari kurib, ularni tartibga keltirish bilan bog'liq talaygina xabarlar chop etilgan. Ularda aroba va foytunlar yuradigan yo'llarni tuzatish, yo'l buylarida suv sakdaydigan kudukdar kazish, kupriklar ko'rish masalalari alohida ta'kidlanadi.

BXSR mavjud bo'lgan davrda sobiq Buxoro amirligini Rossiya imperiyasi bilan boglagan temir yo'l transporta faoliyati davom ettirilgan, Buxoro temir yo'lining CHorjuy-Zirabulok, Kogon- Termiz yo'nalishlari va temir yo'l stansiyalarini ta'mirlash, pochta, telegraf, temir yo'l faoliyatini uzluksiz yo'lga qo'yishga xam alohida e'tibor berilgan. Gazeta materiallari bilan tanishilar ekan, temir yo'l izlari 1921-1922 yillardagi harbiy harakatlar tufayli buzilganligi, viloyatlar o'rtasida mutgasil transport katnovini yo'lga qo'yish imkoniyati mavjud emasligi kabi ko'pgina omillar iqtisodiyot rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatganligi matbuotda oydinlashadi.

¹ Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920-1924 йиллар)- Т.: "Abu Matbuot-Konsalt" 2012. Б. 62-63.

1923-1924 yillarda respublika viloyat va tumanlarini poytaxt Buxoro bilan bog'lash maqsadida tumanlararo ichki temir yillar ko'rish va ishga tushirish bilan bog'liq vazifalar kun tartibiga kuyilgan. 1923 yilning kuzida Buxoro-Vobkent-Fijduvon temir yo'lini ko'rish masalasi ko'tarilgan. G'ijduvon, Vobkentdan tashqari Qorako'l tumanlarini markaz bilan bog'lashga xdrakat qilingan. Bu tadbirlar sanoat korxonalarini xom ashyo etishtiriladigan xududlar bilan yakindan bog'lash maqsadini ko'zlagan edi. Birok BXSRning bu yo'nalishdagi rejalari o'z xolicha qolib ketdi va amalga oshmadi.

1923 yilning baxorida BXSR hukumati boshlig'i F. Xo'jaev SSSR va RSFSR poygaxti Moskvada bo'lib, respublika hududi buylab samolyotlar sotib olish buyicha shartnoma tuzgan. SHartnomaga ko'ra, BXSRga Germaniyada ishlab chiqarilgan "YUnkere" rusumli samolyotlar yuborilgan. Samolyotlar uchun Rossiyaga 50.000 sum oltin xisobida pay puli berilgan. Aeroplanlar Buxoro shahrini SHarqiy Buxoro (Dushanbe), Xiva, Toshkent, Olmaota bilan bog'lashi kerak edi. Respubdikada muntazam xavo flotini yaratish uchuy 3 kishidan iborat maxsus komissiya tuziladi. Komissiya Eski Buxoro, Kogon, Termiz, Dushanbe, Kulob, Qarshi kabi shaxarlarda samolyotlar kunishi va uchishi uchun aeroportlar kurivshi uyushtirib, yo'lga qo'yishi kerak edi. "Buxoro axbori"da: "Buxoro-Dushanbe xavo yo'lini ochish va xavo kemalari tuxtayturgon maydonlar yasamak (yuzaga keltirish - K.R.) uchun Buxoro hukumati 35.000 oltin summ ajratdi", - deyiladi. 1923 yili respublikada "Xavo floti dustlari jamiyati" hamda "Ixtiyoriy xavo floti shirkati" kabilar tuziladi. Ushbu jamiyatlarning tashabbusi bilan respublikadagi tashkilot va muassasalardan, axolidai xavo floti foydasiga yordam pullari to'plangan.

Samolyotlar xoriydan olinayotganligi va kiymati baland bo'lgani uchun respublika hukumati 1923 yil 5 avgustdan 12 avgustgacha "Xavo flotiga yordam xaftaligi"ni tashkil qildi. Xdftalik tadbirlarida Buxoro axolisi faol katnashgan. Bir xafta davomida to'plangan ionalar ro'yxati "Buxoro axbori" gazetasida tulik keltirilgan: "Tilla bilan - 235 sum 50 tiyin; kumush bilan - 233

sum 25 tiyin; Buxoro oltin tangasi - 25 dona, afgon tangasi - 4 dona; ruslarning 1923 yilgi puli bilan - 318792 sum to'plandi.

Xujai Jaxon (hozirgi Fijduvon) tumani - 20 ming sum, 160 pud g'alla; Kogon tumani - 130 ming Rossiya rubli, tilla bilan – 112 sum 50 tiyin miqdorida yordam mablag'i to'pladilar". YUqoridagi raqamlardan ko'rinib turibdiki, Buxoro xalqi xavo transportini yo'lga qo'yish ishida xukumashi qo'llab-quvvatlagan.

"Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalari BXSR tashkil topgan dastlabki davridanok tovar-pul munosabatlari, narx- navo hamda ichki savdoni tartibga solish bilan bog'liq tadbirlar bilan faol shugullanganligi xaqida ma'lumot beruvchi manba sifatida xam muhimdir. Avvalo, jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni yo'lga qo'yish, axolini mablag' bilan ta'minlash maqsadida pul munosabatlarini muvofikdashtirish choralari ko'rilgan. 1920 yilda BXSR Markaziy Inqilobiy qo'mitasi (MIK) qog'oz pullar va ularning respublika hududida amal qilish tartiblari bilan bog'liq bir qator qonunlar qabul qilgan. "Buxoro axbori"ning 1920 yil 21 noyabrdagi 8-sonida hukumatning bu masaladagi 2 ta qonuni hamda moliya nazorati bulimining buyrug'i chop etilgan. X,ar biri 4 banddan iborat bo'lgan 7-8-raqamli qonunlarda BXSR hududida Buxoroda avvaldan amal qilayotgan qog'oz okchalari hamda Turkiston ASSR qog'oz pullari va 1919 yilda zarb etilgan sovet pullari birga muomalada bo'lishi qayd qilingan. Birok kadri pasaygan Turkiston qog'oz pullarini 1921 yilning 1 yanvariga qadar YUsumini 1 sumgatenglashtirgan xolda almashtirish muddati xam belgilangan. Gazeta ma'lumotidan shunday xulosaga kelish mumkinki, BXSRda pul munosabatlarini mumkin qadar tez xal qilish, erkin tovar-pul munosabatlariga o'tish choralari ko'rilgan. Moliya nazoratining 3-raqamli buyrug'ida muxrsiz qog'oz okchalari tezda moliya nazoratiga keltirilib topshirilishi, ularni oldi-berdida kullagan kishi esa jazoga tortilishi aytiladi.

Pul tankisligi, respublikadagi iqtisodiy ahvolning ogirligi sabablaridan kelib chikib, hukumat 1920-1921 yillar davomida 10.000 so'mlik qog'oz pullar zarb qilishga majbur bo'lgan. Bozorlarda 1921 yilda 1920 yilga nisbatan narx-navo 25

foizga oshganligi, qogʻoz pullarining kup miqdori ayrim shaxslar kulida toʻplanib qolayotganligi bilan bogʻliq maqola va xabarlar gazetalarda tanqid qilib borilgan. Ayniqsa bu masalada hukumat aʼzolaridan Said Ahroriyning “Xannotlarga mol berilmasun”, Xalim Ashurovning “Buxoro bozorlarida narsa qimmatligi sabablari” nomli salmoqdi maqolalari respublikadagi iqtisodiy ahvolning tangligi

sabablari, tovar-pul munosabatlaridagi muammolar, narxlarning oshayotganligi omillari tahliliga bagʻishlangan.

Bu muammolar respublika tuzumi mavjud boʻlgan keyingi yillarda xam xal boʻlmagan. Narx-navoning oshib borishi, qogʻoz pullar inflyatsiyasi kabi jarayonlar davom etgan. “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarining 1922-1924 yillar sonlarida xam pul islohoti toʻgʻrisidagi buyruqpar, eʼlonlar, kichik xabarlar, bozorlardagi qimmatchilik, chaykovchilikni tanqid ostiga olgan yirik maqola va xabarlar eʼlon qilingan.

Respublikada pulning kadsizlanishi jarayoni mamlakat miqyosida etishtiryladigan eng muʼim qishloq xoʻjaligi va chorvachilik maxsulotlari: gʻuz a, gʻalla, teri, yung, korakul teri, ichak kabilar narxiga taʼsir koʻrsatgan. “Ozod Buxoro” gazetasi maʼlumoticha, 1921-1922 yillarda ushbu maxsulotlarning narxi past boʻlib, faqatgina 1924 yilda biroz koʻtarilgan. Xabarlarda: “Oshlanmagan kuy terisi oltin xisobi bilan 50-60 tiyin, sigir terisi 2 sumdan 5 sum 50 tiyingacha turadur”, “Xozircha yungning pudi 3 sum 80 tiyindan 5 soʻmgachadur”, “Qorakul terisi esa 7 oltin sum turadur”, “Ichakning choragi 60 tiyin, ishlangan ichak 30 tiyin, ishlanmagan kuy terisi 60 tiyin turadur” kabi maʼlumotlar keltiriladi¹.

“Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarining 1922-1924 yillarda chop etilgan oʻnlab sonlarida respublikaning soliq siyosati bilan bogʻliq maʼlumotlardan xabar beruvchi maqolalarga duch kelinadi. Mazkur maqola va xabarlarni 3 guruxga boʻlish mumkin. Birinchi gurux maʼlumotlarida soliq siyosati va targʻiboti bilan bogʻliq boʻlgan masalalar moxiyati talkin qilinadi. Respublikaning dastlabki ikki

¹ КаримовР., РаджабовК. Политическая и экономическая ситуация в Бухарской Республике (1920-1924 гг.) // История Узбекистана (1917-1991 гг.). - Т.: Шарк, 2002. - С. 63-70.

yilida xalqdan kam miqdorda soliq olinganligi tufayli bu masala matbuotda unchalik yormtilmagan. 1922 yildan boshlab soliq to‘plash va uning mohiyatini axoliga targ‘ib qilish, gushuntirish bilan bog‘liq tashkiliy masalalar gazetalarda bayon qilingan. Soliq siyosati bilan bog‘liq manbalar bilan tanishil- ganda, ularda “bu hukumat xam amirlik hukumatidan kolishmaydi”, “soliq menga kup tushgan” kabi norozilik. kayfiyatidagi fikrlar bayonidan ogox bo‘lish mumkin. Hukumat raxbarlarining soliq solish va undan ko‘zlangan maqsad mohiyatini xalqqa tushuntirib berishga qaratilgan yirik maqolalari “Buxoro axbori”da e‘lon qilingan. Jumladan, Kori Yo‘ldosh Po‘latovning “Xalq hukumati”, “Mustaqil bir mamlakat qanday bulur?”, “Bugungi vazifalarimiz”, “Doxiliy karzga yozilingiz”, “Soliq xakinda bir-ikki suz”, “Muhim vazifamiz”, Said Ahroriyning “Idoralarning tuzatilishi”, “To‘rtinchi inqilobiy yilimizdan nimalar kugamgo?”, “Davlat ishlarida erlilarga yordam etilsun!”, Abdulxamid Oripovning “Ushr xakinda”, “Maqsad yo‘linda” kabi maqolalarini qayd qilib o‘tish mumkin.

Gazetalardagixabar vamaqolalartahlil qilinganda, respublika hududida axolidan olinadigan soliqdarning turlari va ularning miqdori, xukukiy va qonuniy asoslari bilan bog‘liq masalalarni ikkinchi guruxga kiritish mumkin. Bunday ma‘lumotlar gazetada “Qisqa xabarlar” za “Rasmiy kiem” ruknlarida berilgai.

“Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarida soliq to‘plash jarayoni hamda viloyatlar buyicha soliqdarning taqsimot miqdori, sarflangan mablag‘lar xaqida (3-guruxga oid) boy faktik ma‘lumotlar beriladi. Respublika viloyatlari va tumanlari buyicha soliq to‘plash xaftaligi, un besh kunligi kabi tadbirlar uyushtirilganligi hamda natijalari gazetaning xabar va maqolalarida sarxisob qilib borilgan. BXSРning soliq siyosati bilan bog‘liq masalalaridagi matbuot ma‘lumotlari tahlil qilinganda hukumat axolidan soluuни 2 turda: maxsulot va pul tarzida to‘plaganligi, iqtisodi nisbatan rivojlangan viloyatlar axolisidan soliq faqat pul xisobida, SHarqiy Buxoro va turkman viloyatlaridan maxsulot tarzida olinganligining guvox,i bo‘lish mumkin. Axolidan soliq makeadida olingan

maxsulotlar bozor baxosidan past narxlarda xalvda sotilgan. Bundan ko‘zlangan maqsad respublika axolisi moddiy turmush tarzini yaxshilash edi.

“Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalari BXSR iqtisodiy tizimida o‘ziga xos rol o‘ynagan bank va birja bilan bog‘liq masalalar tarixini o‘rganishda xam muhim manbadir. BXSRda bank tizimini yaratishga 1921 yil boshlaridan kirishilgan. Gazetaning bu muammo bilan bog‘liq ma’lumotlarida Markaziy xalq banki, Davlat savdo banki, dehqonlarga karz berish banklari, xorijiy respublikalar (Turkiston ASSR, RSFSR) banklarining shu’balari ochilganligi va ularning faoliyati bayon qilinadi.

BXSR matbuotida ulgurji va ko‘tara savdoni rivojlantirish maqsadida savdo birjasini ochish masalalari hamda ularning faoliyati yoritib borilgan. “Buxoro axbori”ning 1923 yil 18 fevral sonida 12 fevraldan e’tiboran Fayzulla Xuja nomidagi teatr binosida xdr kuni 13.00 dan 14.00 gacha savdo muomalalari bo‘lib o‘tishi, kata dallol lavozimiga SHoxxuja AzizXo‘jaev tayinlanganligi, 22 nafar dallol u bilan birga ishlashi xdkida ma’lumot berilgan.

1924 yilning 13 apreldan 20 aprelyga qadar birjada 111.745 sum 99 tiyin miqdoridagi 33 ta muomala operatsiyasi qayd etilganligi “Ozod Buxoro”da xabar qilinadi. Birok savdo birjasi xam 1924yilning iyul oyiga kelib yopilgan. Bu BXSR iqtisodiy jihatdan RSFSR (1922 yildan SSSR) iqtisodiy tizimiga kushib yuborilayotganligining oqibatlaridan biridir¹.

Xullas, “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalari ma’lumotlaridan kelib chikib qayd qilish mumkinki, 1920-1921 yillarda BXSRda yangicha tarixiy sharoitda respublika iqtisodiy tizimining xuku kiy asoslarini yaratish va yo‘lga qo‘yish uchun amaliy harakatlar bo‘ldi. Birok 1921-1922 yillarda qizil askarlar bilan “bosmachilar” (sovet rejimiga qarshi qurolli harakat ishtirokchilari) o‘rtasidagi kurash tufayli xalq xujalishni tiklash, uni rivojlantirish, yangi reja va loyixalarni amalga oshirish imkoniyati bo‘lmadi. SHu bilan birga, ushbu yillarda

¹ Рахмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920-1924 йиллар)- Т.:“Abu Matbuot-Konsalt” 2012. Б. 60-71.

BXSRda iqtisodiyotning bir qadar mustaqil rivojlanish jixatlari kuzatiladi. 1923-1924 yillarda esa Markaz BXSR iqtisodiyotining barcha tarmoqlarini sekin-asta uz izmiga buysundira bordi.

2.2. Gazetalar - BXSРdagi ijtimoiy masalalarni o'rganish manbasi

Buxoro amirligi tuzumi ag'darilishi bilan amirlik davridagi viloyat va beklklarga asoslangan ma'muriy-hududiy bo'linish bekor qilindi. Tarixiy adabiyotlarda BXSРning ma'muriy-hududiy bo'linishi viloyat va tumanlar, quyi boshqaruv organlari esa kentlar, ovul va qishloqdar tarzida taqsimlanganligi qayd etiladi¹.

BXSРning ma'muriy-hududiy bo'linishi masalasi davriy matbuotning xam diqqat e'tiborida bo'lgan. Gazetalardagi bir qator maqolalarda BXSР viloyatlari, ularning axolisi bilan bog'liq ayrim ma'lumotlar keltiriladi. Jumladan, "Buxoro axbori"ning 1921 yil 7 yanvardagi sonida BXSР Markaziy Ijroiya qo'mitasining 88-raqamli buyrug'i bosilgan. Unda respublika hududida tashkil qilingan 10 ta viloyat hamda ularga kiritilgan tumanlar sanab o'tiladi. "Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalaridagi ayrim ma'lumot va xabarlarda xar bir viloyatda istiqomat qilayotgan axolining soni turlicha raqamlar asosida ko'rsatilgan. Gazeta materiallarida keltirilishicha, BXSРda 1920-1924 yillarda istiqomat qilgan axolini ro'yxatga olish, bu boradagi aniq statistik ma'lumotlarga ega bo'lishga bir necha bor o'rinib ko'rilgan. BXSР hukumatining iqtisod noziri muovini Musojon Saidjonov o'z maqolasida shunday yozadi: "Buxoro o'lkasida jon xisobi xech vaqtda bo'lgan va yuritilgan emas. Xozirda ham Buxoro Jumxuriyati o'ziga qarashlik jonning sonini belgilay bilmaydur". Xaqiqatan ham respublikadagi beqaror siyosiy va harbiy vaziyat hamda iqtisodiy nochorlik tufayli axolining o'z yashash joyini tez-tez o'zgartirib turishi kabi omillar bu vazifani oxirigacha uddalashga imkon bermagan.

¹ *Ражабое Ц.* Бухоро Халк; Республикаси; монархиядан демократия сари дастлабки кадамлар (1920-1924 йиллар). Ўзбекистон тарихининг долзарб муаммо- ларига янги чизгилар / Даврий туплам.. № 2. - Т.: Шарк, 1999. - Б. 149; Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости / Научный редактор Раджапова Р. - Т.: Шарк, 2000. - С. 554; Уша муаллиф. Бухоро Халк Совет Республикаси //ЎзМЭ. 2- жилд. — Т., 2001. - Б. 300; *Хайитов Ш.* ва б. Бухоро Халк Республикаси ва Германия: хамкорликнинг тарихий лавхалари (1920-1924 йиллар). -Т.: Фан, 2004.-Б . 7.

Gazetalar ma'lumoticha, o'sha davrda respublikaning SHarqiy Buxoro qismida Sariosiyo viloyati (Sariosiyo, Qoratog', YUrch, Bobotog' tumanlari), Dushanbe viloyati (Dushanbe, YAngibozor, Fayziobod, Xovos tumanlari), G'arm viloyati (G'arm, Qal'ai Xum, Darvoz tumanlari), Kulob viloyati (Xovaling, YAKsuv, Muminobod, Kulob tumanlari), Qo'rg'ontepa viloyati (tumanlarga bulinmagan) kabi viloyat va tumanlar mavjud bo'lgan.

Respublikaning oxirgi yilida, ya'ni O'rta Osiyoda milliy- hududiy chegaralanish o'tkazilishi arafasida ma'muriy-hududiy bo'linish bilan bog'liq, o'zgarishlar gazetada aks ettirilganligi muhimdir. F. Xo'jaev, A. Muxiddinov, I. Xidiraliev va boshqa hukumat a'zolarining bu masaladagi yirik maqolalari mavjudligini qayd qilib o'tish o'rinlidir. Ular orqali BXSР tarkibida tojik va turkman viloyatlari tashkil etilishi (1923 yil) bilan bog'liq munozarali tarixiy voqealardan xabardor bo'linadi.

1924 yilning kuzida tojik xalqining nufuzi 1.200 000 kishini tashkil qilganligi hamda o'zbek jumhuriyati markazi Samarqand bo'lishiga butun o'zbek vakillari rozi bo'lganligi, O'zbekiston SSR tuzilishi bilan bog'liq birinchi qurultoy Buxoro shahrida chaqirilishi xaqida ham gazetada ma'lumot beriladi. Xullas, "Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalarida BXSРning 1920— 1924 yillardagi ma'muriy-hududiy bo'linishi, undagi o'zgarishlar jarayoni, viloyatlarda yashagan axolining soni, milliy tarkibi, moddiy shart-sharoitlari, millatlararo munosabatlar to'g'risida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Mazkur davrda o'tkazilgan 5 ta Butun Buxoro xalq vakillarining qurultoyi tafsilotlari to'g'risida "Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalarida berilgan batafsil ma'lumotlar BXSРdagi ijtimoiy- siyosiy jarayonlarni atroflicha o'rganishda muhim manba bo'la oladi. Xar bir qurultoyda xalq etilgan masalalar ko'lam va natijalari gazeta muxbirlari, mas'ul xodimlari tomonidan tahlil va tavsif qilingan. "Firqa qurultoyi", "Buxoro ishtirokiyun Firqasi qurultoyi", "Turkmanlar qurultoyi", "Qirg'iz qurultoyi", "Umumiy dehqonlar qurultoyi", "Kasabalar qurultoyi", "Butun Buxoro muallimlarining birinchi maorif qurultoyi", "Umumiy

qozilar qurultoyi”, “Butun Buxoro vaqf qurultoyi”, “Buxoro yoshlariing qurultoyi”, “Butun Buxoro muallimlarining ikkinchi maorif qurultoyi” kabi turli sohadagi qurultoylarning ham gazetalarda chop etilishi respublika ijtimoiy-siyosiy hayotini atroflicha o‘rganishga yordam beradi.

“Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarida BXSRda tashkil topgan ayrim ijtimoiy-siyosiy tashkilotlar: kasabalar uyushmasi, yoshlar ittifoqi, xotin-qizlar qo‘mitasi, ularning o‘sha davrdagi vazifalari, qabul qilgan rasmiy xujjatlari, ustavlari haqida xabar beruvchi maqolalar bosilganligi bu yo‘nalishdagi tarixiy faktlarni boyitadi.

Gazeta materiallaridagi ma’lumotlar tahlilicha, BXSR hukumati lavozimlarida faoliyat olib borgan eng YUqori mansab egalari ham bir lavozimdan ikkinchisiga tez-tez almashinib to‘rgan. Ikkinchidan, birgina mansabdor shaxs bir paytning o‘zida 2-3 lavozimda faoliyat olib borganligi aniqlandi. Hukumat arboblari Fayzulla Xo‘jaev, Abdulkodir Muxiddinov, Qori Yo‘ldosh Po‘latov, Olimjon Oqcho‘rin, Abdulxamid Oripov, Said Ahroriy kabi bir qator siyosiy arboblarning qanday mansab va lavozimlarda ishlaganligi bilan bog‘liq ma’lumotlar gazetalarining o‘nlab sonlari orqali aniqlandi. Jumladan, Fayzulla Xo‘jaev BXSR Xalq Nozirlari SHo‘rosi (XNSH) raisi, harbiy nozir, xorijiya noziri, dohiliya noziri, Abdulqodir Muxiddinov Butun Buxoro Markaziy Inqilobiy qo‘mitasi raisi, BXSR savdo-sanoat noziri, XNSH raisi muovini, iqtisod shurosi raisi, XNSH muvaqqat raisi, Qori Yo‘ldosh Po‘latov BXSR maorif noziri, dohiliya noziri, muxofaza idorasi boshlig‘i, mehnat shurosi raisi, “Buxoro axbori” gazetasi mas’ul muharriri kabi turli lavozimlarda ishlashgan. Hukumatning boshqa a’zolari ham shu tariqa bir mansabdan ikkinchisiga o‘tkazib turilgan¹.

BXSRning dastlabki yillaridagi ijtimoiy masalalardan biri - sobiq amirlik yillarida faoliyat yuritgan amaldorlar taqdiri gazeta materiallarida qayd qilib borilgan. “Buxoro axbori” gazetasida yozilishicha, Domla Faxriddin,

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида / Илмий муҳаррир Жўраев М. - Тошкент: Шарқ, 2000. Б. 688.

Abdulxamidxo‘ja, Abdulrazzoq Boki o‘g‘li, Muxtorxo‘ja Saidg‘anixo‘ja o‘g‘li, Mulla Badriddin qozi va Buxoro amirligida yuqori mansablarda ishlagan boshqa qozi, mulla va sudurlar 1920 yil 6 sentyabrda bo‘lgan favkulodda tekshiruv komissiyasi - Buxcheka (BXSR favkulodda komissiyasi) raisi Hoji Hasan Ahrorim o‘g‘lining qarori bilan otgshga hukm qilinganlar va hukm o‘sha kuni ijro etilgan.

Hukumat boshqaruvida va rasmiy xujjatlarni yuritishda o‘zbek tiliga munosabat hamda milliy masalalarni qamrab olgan xabar va maqolalar xam BXSR matbuot organlarida qayd qilingan. Rasmiy xujjatlarni o‘zbek tilida yuritish, hukumat xabarlarining davlat idoralarida o‘zbek tilida mudokotda bo‘lishi qat’iy belgilab kuyilganligi va maxsus qonun bilan mustaxkamlanganligi gazeta va tarixiy xujjatlardagi ma’lumotlar muvofik kelishidan dalolat beradi. Ta’kidlash joizki, gazetada davlat tili (o‘zbek tili)ning axamiyati, milliy birlik va uzlikni mustaxkamlashdagi mavkei va o‘rnini tashvik etuvchi, shu bilan birga, tanqid qiluvchi salmoqdi maqolalarni ko‘rsatish mumkin. Respublika boshqaruvining iqtisodiyot, mol iya, harbiy sohalarida etakchi xabar kadrlarning etishmasligi va ular asosan evropa millatiga mansub ekanligi shart-sharoitidan kelib chikib, ushbu nozirliklarda o‘zbek tilida uzaro mulokot qilish va rasmiy xujjat yuritishda majburiylik usuli kullanilmagan.

Hukumat siyosatining muhim yo‘nalishi bo‘lgan axoli maishiy turmushini yaxshilash bilan bog‘liq shaxdr va qishloqdarni obodonlashtirish, botkokdiklarni kuritish va kamishzorlarni yukotish, istiroxat boglari ochish kabi masalalar xam gazetalarda keng yoritilgan. Hukumat Buxoro kuchalariga tosh yotkizish, transport yo‘llarini tartibga keltirish xaqida xam bir qator tadbirlar belgiladi. Matbuot materiallarining ma’lumoticha, respublika poytaxti Eski Buxoro shahri kuchalari tor, kechkurunlari ba’zi kuchalarning korongiligi va kulmak suvi tufayli xatto yayov yurish kiyinligi qayd qilinadi. Masalan, “Doxiliy (ichki ishlar) nazoratidan olingon ma’lumotlarga kura, Buxoro kuchalarida tez yurigon avtomobil va

foytunlar orkasidan ot-foytun yoki avtomobil ostiga qolib uluvchilar, oyoksiz, kulsiz koluvchilar juda kupdur...”, - deb yoziladi gazeta maqolalaridan birida¹.

Gazetalarda yangi hukumatning Buxoro axolisi maishiy turmushini yaxshilashga qaratilgan tadbirlari xaqidagi ma'lumotlar xam mavjud. “Buxoro axbori”ning yozishicha, 1922 yil Buxoroda maktab o'quvchilari uchun yozgi ta'til davrida dam olishga muljallangan “Bolalar bogi” tashkil etilgan.

Maishiy turmushning zaruriy tarmog'i bo'lgan pochta va telegraf bilan bog'liq o'zgarishlar.gazeta maqola hamda xabarlarida uchraydi. 1922 yilda pochta-telegraf maktabini 20 kishi bitirdi, - deb yoziladi gazetada. Pochta-telegraf ishlari 1922 yilga kelib yo'lga kuyilgan. Pochta va telegraf ishlari yo'lga kuyilgan bo'lsa-da, kommunikatsiya xizmati sohasining bu yo'nalitpdagk faoliyati ancha cheklangan edi. 1922 yil 1 noyabrdan telegrafning xar suzi 20 sum, buyurtma xatlari 50 sum bo'lib, tulov 1922 yilgi okcha xisobidan amalga oshirilgan. Xar bir fukaro 24 soat (1 sutka) ichida 1 ta telegramma berishga xukukdi bo'lgan. Telegramma ish joyidan tasdikdangan bo'lishi, 5 suzdan oshmasligi belgilab kuyilgan. Savdo xabarleri, tabrik telegrammalari qabul kilinmagan. Favkulodda xolat va fojeali voqea yuz berganda telegramma olingan.

1923 yil boshida ommaviy axborot vositalaridan Buxorodaradio sgansiyalari kurildi. “Bu Minorai Kalon ostita o'rnatilgon”, - deb szadi “Buxoro axbori” gazetasi. Demak, gazetanyng xabarlariga kura, Buxoro shahri axolisi 1923 yil fevral oyidan boshlab radioeshittirishlardan baxramand bo'lgan.

SHaxar kuchalarini yoritish, axolini elektr chirokdari bilan ta'minlash uchun BXSR hukumati chora-tadbirlar belgilagan. “Buxoro axbori”da keltirilishicha, 1923 yil kuzidan Buxoro shahridagi Registon maydonida ilk bor elektr stansiyasi o'rnatilgan. Xabarlarda shaxarni elektr chiroklari bilan yoritish 1923 yilning 15 oktyabridan boshlanadi, deb qayd kilinsa-da, aslida buxoroliklar xonadonida usha yilning 12 dekabridan elektr chiroklari yondi. Buxoro shahridan keyin 2-elektr

¹ Раҳмонов К. Матбуотда дунё мамлакатларидаги ижтимоий- сиёсий муаммолар талкини // Бухоро давлат университети илмий ахбороти. - Бухоро, 2011. №1. - Б. 4-8.

stansiyasi CHorjuy shahrida o'rnatilib, avvalo harbiy xizmatchilar joylashgan kazarmalar elektr toki bilan ta'minlanganligi gazetalar orqali xabar qilinadi.

BXSR yillarida axoli moddiy turmushining amirlik davridan qolgan past darajasi: ocharchilik, qashshoqdik, ichimlik suvi muammosi, ko'pgina xududlarda kuruk, chang-tuzonli, uta issik garmselli ob-xavo, kish faslida isitish sharoitlarining yaratilmaganligi sababli kasalliklar va yukumli epidemiyalarning ko'plab turlari tarkalgan. "Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalarida yozilishicha, vabo, isitma, rishta (teri osti kurtlashi), bezgak (Buxoro varajasi), chechak, bugma, zaxm, teri-tanosil, kuz ogrigi kabi kasalliklar mavjudligi sanab utiladi. Amirlik davridan asorat sifatida saqlanib kelayotgan yagona soglikni sakdash tizimining yaratilmaganligi tufayli BXSR hukumati bu sohada maxsus nozirlik va bosh karu v idoralari tuzishga aloxdsa e'tibor qaratgan. SHu kabi xujjatlardan birida BXSR soglikni sakdash xalq nozirligi faoliyati keng yoritilgan. 1920 yil 14 noyabrda soglikni sakdash noziri tomonidan tayyorlangan maxsus ma'ruzada mazkur nozirlikning tashkil topishi, uning bulim va shu'balari faoliyati ko'rsatilgan. Xujjatda keltirilishicha, soglikni sakdash xalq nozirligi 1920 yil 1 noyabrda maorif nozirligi tarkibidan mustaqil nozirlik sifatida ajralib chiqqan.

Gazetalariing ma'lumotlari bilan batafsil tanishilganda, usha davrdagi axolining salomatligi ayanchli axdolda ekanligidan vokif bo'linadi. "Termiz shahrida xozirgacha (1923 yil) 200 kishi chechak bilan ogrigon, ulgonlarning soni 30 ga etadur... Kubodiyon rayonida (hozirgi Tojikiston Respublikasi hududida - K.R.) 1114 kishi bu kasal bilan ogrib, 50 foizdan ortigi ulgondur", - deb yoziladi "Ozod Buxoro" gazetasida.

Gazetalarda qayd qilinishicha, "Xalq salomatligini sakdash markaziy idorasi" to'g'risida maxsus nizomnoma imzolanib, unda respublika hududida yukumli kasalliklarga qarshi kurash markazlarini ochish, xorijdan dori-darmonlar keltirish, dorixonalar ko'rishvafaoliyatiniyo'lgao'q'yish, bolalar vax,arbiylar salomatligi markazlarini ochish, xorijdan tibbiy mutaxassislarni jalb qilish kabi masalalar ko'rsatilgan. Mazkur xujjat ijrosi asosida 1922-1923 yillarda

Germaniyadan BXSRga katta miqdorda dori-darmonlar, tibbiy asbob-uskunalar keltirildi. Bezgak kasalligining boshlanganligi oqibatida oltin okcha xisobi bilan 40 000 sumdan oshikrokmablag‘ga xorijdan dori-darmon olinganligi "Buxoro axbori"da alohida qayd qilinadi.

BXSRda feldsherlik punktlari, kasalxonalar ochishga jiddiy n.tibor qaratilganligi, faqatgina 1923 yilning avgust-sentyabr oylarida SHerobod, Darband, SHahrisabz, Karki, K^arshi, Karmana, Nypato (Nurota), Vobkent kabi tuman, shaxar va viloyatlarda kasalxonalar ochilganligi matbuotda xabar qilinadi.

Harbiy kislmlarda yukumli kasalliklarning oldini olishga baginshangan konferensiyalar tashkil qilindi, tumanlarda kuchma tibbiy nazorat punktlari, maslaxatxonalar ochildi. 1924 yilga kelib respublikada tropik kasalliklar instituta, 5 ta kasalxona, 2 ta ambulatoriya va 8 ta feldsherlik punkta faoliyat ko‘rsatdi. Ushbu dalillar gazetalarning maqola va xabarlarida xam qayd etiladi.

Gazeta xabarlarida tuman va kentlarda ochilgan kasalxonalarning 30 yoki 50 kishiga muljallanganligi, joylarning etishmasligi, kasalxona va feldsherlik punktlarida tibbiyot xodimlarining soni kamligi qayta-qayta ta’kidlanadi. “Buxoro shahrida 1 ta dorixona mavjud bo‘lib, axoli dori-darmonlar sotib olish uchun 2-3 soatlab navbatda turgan”, - deb yoziladi “Ozod Buxoro”da¹.

¹ Раҳомов К. Соғлиқни сақлаш муаммоларининг даврий матбуотдаги талқини // Жамият ва бошқарув. - Т., 2006. (Махсус сон.)-Б. 115-117.

2.3. Matbuot sahifalarida BXSР harbiy masalalar va xotin-qizlar muammosining o‘rganish manbasi.

“Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarida BXSРdagі harbiy xolat va harbiylarning turmush tarzi bilan bog‘liq; muammolar xam yoritilgan. “Buxoro axbori”da yozilishicha: “Millatning saodati uchun ikki narsa, birinchisi, ilmi-maorif, ikkinchisi, yaxshi va intizomli askar tashkil kil mak zarur”¹.

Uchratilgan manbalarda Buxoro amirligi tuzumini ag‘darish vazifasi asosan qizil askarlar yordam ida bajarilganligiga alohida urgū berilib, bundan keyin milliy-demokratik mustaqil davlatni barpo qilish tamal toshlaridan biri - mahalliy xalq vakillaridan iborat kushin tuzish zarurligi qayd qilinadi. Davlat va siyosiy arboblardan Fayzulla Xo‘jaev, Abdulkodir Muxiddinov, Krri Yo‘ldosh Po‘latov, Maxmud Said Ahroriy, Abdulxamid Oripov, Abbos Aliev kabilarning matbuotda aynan shu muammoga bag‘ishlangan salmoqdi maqolalari chop etilgan. Jumladan, A. Muxiddinovning “El askari - qizil askar”, A. Alievning “5 fevral – armiyaga safarbarlik kuni”, S. Ahroriyning “Harbiy ishlarimiz xam almashsun”, F. Xo‘jaevning “Dushmanlarimiz bilsunlar”, Q. Y. Po‘latovning “Mustaqil bir mamlakat kdnday bulur?” kabi maqolalari milliy hukumatning bulajak armiyasi qanday bo‘lishi kerakligi, uni yaratish asoslari, muammolari bilan bog‘liq keng kamrovli masalalarni uz ichiga oladi. K-Y- Po‘latov: “Mamlakat mudofaasi uchun okcha, ozuka va molni ayamaslik kerak”, - deb yozsa, S. Ahroriy: “Endigi vazifa rasmiy xujjatlar yuritishdagi, komanda berishdagi ruscha muomala o‘rniga uzbekcha mulokotni joriy qilishdur”, - deb yozgandi. A. Muxiddinov uz maqolasi mazmuniga qizil armiya kismalari Buxoro hududida turar ekan, respublika mustaqilligi faqat suzdan iborat bo‘lib koladi kabi fikrlarni singdirgan.

“BXSР harbiy ishlar xalq nozirliği (nozir – Fayzulla Xo‘jaev) 1921 yil 1 fevralda kuyidagi harbiy kismalar va boshqarmalarni tashkil qilish to‘g‘risida qaror

¹ Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920-1924 йиллар)- Т.: “Abu Matbuot-Konsalt” 2012. Б. 70-72.

chiqardi: nozirlik shu'bas; komendant, musika, x^hjalik va ishchi rotalari; Buxoro, CHorjuy, Karmana, Qarshi, SHahrisabz, Xisor, SHerobod viloyatlari harbiy nozirliklari; komandirlar tayyorlaydigan 1 -Buxoro harbiy maktabi" kabi ma'lumotlar keltiriladi arxiv xujjatlarining birida. "Buxoro axbori" gazetasida yozilishicha, 1921 yildan boshlab 5 fevral eanasi BXSR armiyasiga umumiy safarbarlik kuni sifatida nishonlangan. Armiyaning milliy ramzlarini yaratish, mardlik va jasorat ko'rsatgan askarlarni tavgirlash uchun nishon joriy qilish, milliy armiyani mustaxkamlash oyi tadbirlarini utkazish kabilar gazetalarda keng targ'ib qilindi va yoritildi. "Buxoro axbori"da: "Buxoro inqilobiy qo'mitasi ikki turda nishon ta'sis etdi. Birinchi nishon tillodan bo'lib, 8 kirrali yulduz, uning ichida hukumatning bayrogi. Ikkinchi nishon Xam xuddi shu tartibda yasali, faqat nukradan kilingon", - deb yoziladi. Tarixchi 1\.. Rajabovning ma'lumotlariga Karaganda, ushbu nishonlarning raemi bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenta Devoni xuzuridagi arxivda sakdanmovda. Hukumat harbiylar moddiy ahvolini yaxshilash choralarini xam ko'rgan. Bu xavda gazetalarda: "Nozirlar SHurosi harbiy va doxiliya ishlari nazorati ixtiyoriga 7 pud (4000 sum) oltin berdi, bu oltin askarlar va militsiyaga keragicha sarf etilgusidur". "Askarlar joylashgon kazarmalarni ta'mirlash uchun iqtisod shurosi tarafidan 183 ming tanga ajratildi" kabi ko'plab ma'lumotlar keltiriladi¹.

Askarlarning moddiy sharg-sharoitlarini yaxshilash bilan birga ular ma'naviyatini ko'tarish, ma'rifatli qilish masalasi xam gazetalarda chop etilgan bir qator maqolalarda qayd qilinadi. Jumladan, gazeta muxbirlaridan biri Bekboy armiya va militsiyadagi ma'naviy-axlokiy tarbiya to'g'risida fikr yuritir ekan, "askarlarning past darajadagi savodxonligi (ayniqsa, mahalliy xalq vakillari orasida) sababi - "bu butun ilm Buxoro shahridagi madrasalarga berilib, xalqdagi maorifga extiyoj axamiyatsiz qoldirilgonl igi asoratidur", - deb yozadi o'zining maqolalaridan birida.

¹ Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920-1924 йиллар)- Т.: "Abu Matbuot-Konsalt" 2012. Б. 75.

“Buxoro axbori” v a “Ozod Buxoro” gazetalar materiallari ma’lumoticha, milliy armiyani istikbolda respublika XUDUDVDA ishlab chiqaridadigan qurollar bilan ta’minlash xam rejalashtirilgan edi. 1922 yilda harbiy nozirlik tomonidan amir zamonidan qolgan miltik va to’plarni ta’mirlashga buyruq berilgan.

Matbuot nashrlari respublikaning oxirgi yillarida (1923-1924 yillar) askarlar ta’minoti biroz usganligi, ular savodxonligi va harbiy tajribasi ortganligi, harbiylar uchun ko’rilgan yashash binolari bunyod etilganligi to’g’risida bir qadar ijobiy ma’lumotlarni keltiradi.

Birok, milliy hukumat rejalashtirganidek, mahalliy xalqdar vakillaridan muntazam armiya tuzish, uni zamonaviy harbiy aslaxalar bilan qurollantirish, mamlakat mudofaa kobiliyatini mustaxkamlash, mahalliy harbiy tribunalni shakllantirish vazifalari bajarilmagan. Jumladan, harbiylar sogligini nazorat qilish xam etarli yo’lga qo’yilmagan, harbiy shifokor mutaxassislar etishmagan.

BXSR hukumatiga muxolifatda bo’lgan, qizil askarlarga qarshi kurashayotgan ozodlik harakatining ishtirokchilari, ularning harbiy harakatlari, faoliyati, shaxsiyagi, kurash jarayonidagi psixologik xolatlari, takdirlari shuro mafkurasi talabparidan va mezonlaridan kelib chikib, “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarida “bosmachilik” sifatida talkin qilingan. SHuning uchun BXSR Xalq Nozirlar SHurosi raisi va ayrim hukumat a’zolari hamda gazeta muxbirlarining bu masalaga taalyaukdi bo’lgan barcha maqolalari xam mafkuraviy andozada yozilgan. Ushbu maqolalar tahlili shuni ko’rsatadiki, BXSR jugrofiy hududida olib borilayotgan “bosmachilar” harakati nukul salbiy baxolandi. “Bosmachilar” “xalq dushmanlari”, “xoin”, “sotkin”, “eskilik sarkdti tarafdorlari”, “amir malaylari”, “yangilik dushmanlari” kabi atamalar bilan koralanadi.

1920-1921 yillar, ya’ni yangi tuzumning dastlabki 1,5-2 yili davomida “bosmachilik” mavzusi gazetalar sahifalarida deyarli bayon kilinmaydi. Respublika hududida kechayotgan harbiy harakatlar kuchaygan va BXSR hukumatining muxolifatga munosabati tula ravishda qaror topmagan bir vaziyatda matbuot sahifalaridagi keskin materiallar xalqni taxdikaga solishi, tartibsizlshslarni

kuchaytirishi va ziddiyatli xolatlarni vujudga keltirishi mumkin edi. SHuning uchun bu yillarda mazkur harakat to'g'risida gazetada ma'lumot berilmaydi. Masalaning yana bir jixati shundaki, Buxorodagi qurolli muxolifatning uzi xam goyaviy jihatdan turli guruxlarga bulingan edi.

1922-1924 yillardagi gazeta sonlarida "bosmachilik" harakati bilan bog'liq yuzlab maqola va xabarlar beriladi. Ularni kuyidagi guruxlarga bo'lish mumkin:

1. "Bosmachilar" va ularning harbiy harakatlari hududi, maqsad va vazifalari, tarkibi, tapgkilotlari, ular o'rtasidagi ixtiloflarni yorituvchi maqola vaxabarlar.

2. "Bosmachilar" va qizil askarlarning harbiy tuknashuvlari: kurash jarayoni, oqibatlar, ayrim kurbooshilar va ular guruxlarining tarixiy takdiri, BXSR hukumatiga taslim bo'lgan kurbooshi va "bosmachilar" guruxlari vakillarining harbiy tribunal tomonidan xukm qilinishi hamda jazoga tortilishi bilan bog'liq xabarlar va bildirishlar¹.

Gazeta matnlaridagi bu mavzularga tegishli ma'lumotlarni Buxoro viloyati davlat arxivi xujjatlari xam tuldiradi. SHunday xujjatlardan birida keltirilishicha, 1923 yil noyabr oyida kurbooshilardan Jura Amin, A'zam Xuja, Tosh Murdashuy, Bozorbek, Ravshan Davlat kabilarning harakati faollashgan. Ularning xar biri 500-600 kishilik suvoriylari bilan Buxoro shahri atrofida hamda Kumushkent, Xargush va Xayrobod kentlarida qizil askarlar bilan jang qilganlar.

Gazetalar esa sovet mafkurasi aeosida bu masalaga munosabat bildirgan bo'lsa-da, undagi manbaviy ma'lumotlar 1920-1924 yillar BXSRdagi qurolli kurashlar tarixini yanada mukammal o'rganishni ilmiy-nazariy jihatdan boyitadi.

Butun SHarq dunyosida bo'lgani kabi Buxoroda xam ijtimoiy muammolarning eng muhim buginlaridan biri xotin-qizlar muammosi edi. "Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalari materiallari mazkur muammoni tahlil qilishda hamda tegishli xulosalar chiqarishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

¹ Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости/ Научный редактор Раджапова Р. - Ташкент: Шарк, 2000. С. 672.

Gazetalardagi ushbu yo‘nalishga oid maqola, xabarlarni mazmuni va mohiyati jihatidan bir necha kislmlarga bo‘lish mumkin:

1. Xotin-qizlar maorifi muammolari va targ‘iboti bilan bog‘liq maqola va xabarlar.

2. Hukumatning xotin-qizlar uchun amalga oshirgan maktab- maorif tadbirlarini yoritib beruvchi materiallar.

3. Buxoro ayollarining jamiyat va oiladagi xukuk hamda erkinliklari masalalariga oid maqola va xabarlar¹.

Xotin-qizlarni ma‘rifatli qilish masalasidagi maqolalar mazmunidan hukumatning maqsad va vazifalari aniq bo‘ladi. YA’ni ayollarni ma‘rifatli qilishdan maqsad ular uchun o‘qish va xdrf tanitish uchungina darkor bo‘lmay, ayni paytda ma‘rifatli onalar vositasi bilan akdiy va jismoniy barkamol farzandlarni tarbiyalash, oila ma‘naviyati va asosini mustaxkamlash, adolat, tenglik, istikdol, ozodlik kabi ne‘matlarning mox;iyatini tushunish omillariga xam xizMat qiladi, deb karalgan.

Xotin-qizlar uchun maktab va maorif ishlari borasida hukumat amalga oshirayotgan xar bir tadbir gazeta xabarlari orqali xalqqa ma‘lum qilib borilgan. Jumladai, maorif nazorati tomonidan Eski Buxoroda xotin-qizlardan muallimalartayyorlash uchun 6 oylik ta‘lim-tarbiya kurslari ochilganligi, 25 iyunda (1922 yil) BXSR tarixida birinchi savodsiz xotin-qizlar maktabi (Buxoro shahrida) tashkil etilganligi bayon qilinadi.

Bir qator manbalarda BXSR hukumatining xotin-qizlarni ukitish faoliyatidagi kamchiliklar, foydalanilmagan imkoniyatlar, tusikdar va karama-qarshiliklar tanqid ostiga olinadi. 1924 yilda 60 dan ortik maktablarning atigi 2 tasigina qizlar maktabi ekanligi, mazkur maktablarda rejadagi 50-100 o‘quvchi o‘rniga 15-20 nafargina qizlar taxsil kurayotganligi aytiladi. “Karkida xotun-qizlar maktabi” nomli maqolada qayd qilinishicha, mazkur shaxarda xoti n-qizlar

¹ Рахмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920-1924 йиллар)- Т.:“Abu Matbuot-Konsalt” 2012. Б. 88.

maktabi ochilib, 20 nafar talabaukiyotganligi, maorif nazoratidan turli o'quv asboblari va muallimalar yuborish suralganda, Buxorodan: "20 kishiga asbob, muallimalar yubora olmaymiz, tayyor bulguncha talabalarni markazga yuboring", - deb javob berilgan. "Uz shahrimizda o'qitmok kiyin kechayotgan bir davrda, buni qanday tushunmok kerak", - deydi maqola muallifi "Turkman kizi". Bu ma'lumotlar orqali chekka shaxarlarda ochilgan xotin-qizlar maktabining o'quv-moddiy bazasini tashkil qilish, maorif nozirligi tomonidan nazorat qilish ishlari sust olib borilganligidan vokif bo'linadi.

YOsh qizlarni turmushga berish, ularni oilaga tayyorlamasdan uzatish jaxolat ekanligi ayrim maqolalar mazmuniga singdirilgan. "Jaxolat kurboni bulurgamaxkum bulgon muxtaram onalarimizning bisyorlari yamok kurpachalar ustida bekordan bekorga majbur qilish asosida bolalikdanok turmushga chikib, sakich chaynab vaqt zoe kilguncha biroz tafakkur kilsalar, millat va vatan yuksalgon bulur edi", - deb yoziladi "Buxoro axbori"da. Bu kabi tanqidiy maqolalar gazetalarda talaygina.

Xotin-qizlarni hayotga kengrok tortish maqsadkda Buxoroda 1922 yilning 17 martida birinchi marotaba "Xotunlar kuni" bayrami o'tkazilgan. Xotin-qizlar ishtirokida utgan bu bayram tafsilotlari gazeta sahifalarida o'rin olgan "Buxoroda xotunlar kuni" maqolasi orqali keng yoritilgan. Xullas, "Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetasi ma'lumotlari BXSReda xotin-qizlarning ijtimoiy xukuki hamda maorifi masalalarini o'rganshsda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, "Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalari respublika iqtisodiyotiningTo'rt yarim yillik davridagi xolati, xo'jalik tarmoqlari rivojidadagi o'zgarishlar, murakkablik va ziddiyaTlar hamda ayrim sohalardagi inqirozli jixatlarni xronologik ketma-ketlikda o'rganib, tegishli xulosalar chiqarish uchun asosiy manbadir.

"Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalari BXSReda 1920-1924 yillardagi ma'muriy-hududiy bo'linishida yuz bergan o'zgarishlar, hukumat boshqaruvi tizimi, nozirlar, ularning faoliyati, milliy masala, axolining milliy

tarkibi, siyosiy tashkilotlar tuzilishi va tarixi kabilar xaqida tushuncha hamda tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi.

BXSR hukumati uzi uchun murakkab va ogir bo'lgan ichki va tashki vaziyatga karamay, usha davrning zamonaviy kommunikatsiya va informatsiya tizimlari yangiliklarini joriy qilish vazifasiga kirishgan. Birok axolining keng qatlamlari orasiga, ayniqsa, chekka viloyat va kentlarda, qishloqdarda yashovchi kishilar kundalik turmushiga pochta-telegraf, radio va elektr tarmoqdari kabi yangiliklar mutlako joriy kilinmaganligini Buxoro matbuoti orqali bilish mumkin.

XX asrning dastlabki un yilliklari davrida Buxoroda tibbiyot, tibbiy xizmat ko'rsatish past darajada bo'lib, surunkali yukumli kasalliklardan ax,oli aziyat chekardi va sanitariya-gigiena qoidalariga amal kshdanmasdi. BXSRda tibbiyot va xalq salomatligi muammolarini atroflicha o'rganishda "Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalari materiallari boy manba bula olishi isbot talab kilmaydi.

Respublika hukumati xotin-qizlarning xukuklari hamda jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq jidsiy qarorlar qabul qilish va ularni hayotga tatbik etishga ulgurmadi. Hukumat yuksak rejalar, istikbolli maqsad va vazifalarni ko'zlagan bo'lsa-da, moddiy, iqtisodiy, harbiy, tashki omillar ularning ijrosiga imkon bermadi. SHunday bo'lsa-da, jamiyatni ma'naviy soglomlashtirish, o'zbek ayolining iffati va or-nomusini sakdash hukumat diqqat- e'tiborida bo'lganligini gazetaning bu yo'nalishdagi materiallari orqali chuqur anglab olish mumkin.

III BOB. MATBUOTDA BXSERNING MAORIF VA MADANIYATI MUAMMOLARI

3.1. “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarida maorif masalasining yoritilishi

BXSR hukumati tarkibida maorif nozirligining tashkil etilishi va ushbu nozirlik zimmasiga zamoy talablari asosida ta'lim-tarbiyani yo'lga qo'yish mas'uliyati yuklatilgailigi hamda bu yo'nalishdagi faoliyat kirralari davriy matbuot talkinida uz aksiii topgan. “Buxoro axbori” gazetasining 1920-1921 yillarda chop etilgan sonlari bilan tanishilganda hukumatning endigina vujudga kelgan respublikada maorif tizimi asoslarini yaratish bilan bog'liq buyruq va qarorlari, dastur va qoidalar, farmoilar, chora-tadbirlar hamda maorif masalasiga oid turli-tuman e'lonlardan vokif bo'linadi. Masalan, 1920 yil 17 sentyabrdagi buyruqda maorif nazorati ixtiyoriga amirlik davrida mavjud bo'lgan barcha kitob, o'quv-yozuv asboblari topshirilishi, maorif nazoratining ruxsatisiz uyaarni xorijga olib chikmaslik, sotib olish ma'n etilishi zarurligi qayd qilinganligi “Buxoro axbori”dan o'rin olgan. YUqorida qayd etilganidek, “Buxoro axbori” gazetasi uz sahifalarida hukumatning maorif masalasiga oid ta'lim-tarbiya muammolarini xal qilishga qaratilgan xar bir tadbiri va qarorlarini muttasil berib borgan. Ularda maorif nazorati tarafidan muallimlar tayyorlaydigan madrasalar ochilishi, o'quv muassasalariga mutaxassislarni tanlash, jami madrasalarni maorif nazorati ixtiyoriga berish, turli yoshdagi shaxslarni o'qishga jalb qilish, xdtto x,ibsonada xam axlok tuzatishga xizmat qiladigan kiroatxona ochish, turli xunar artellarini tashkil qilish, ukituvchi-murabbiylar tayyorlash, mirzolar kurslarini tashkil qilish, tumanlarda ta'lim-tarbiya kursi ochib, mahalliy yoshlarni o'qishga jalb qilish, turli yoshdagi o'quvchilar uyushmalarini ochish, ukituvchilarni moddiy jihatdan ta'minlash, ularning xujjaglarini rasmiylashtirish kabi kup kirrali jixatlar aks ettirilgan.

1921 yil 17 aprelda “Buxoro axbori” sahifalarida bosilgan xabarda: “XNSHning . oxirgi majlisida 25 yoshgacha bulgon kishilarning o‘qishga majburiy ekanligi to‘g‘risida qaror berilgon. Kaerda ishlamasun zurlabo‘qishga olish boshlangon”, - mazmunidagi ma’lumot berilgan. Gazetadagi ushbu ma’lumot BXSRda barcha uchun savod chiqarish majburiy qilib kuyilganligidan vokif qiladi¹.

Maorif va maktab tizimini yo‘lga qo‘yishda eng asosiy me‘yoriy xujjat BXSR maorif noziri K^ori Yo‘ldosh Po‘latov raxbarligida ishlab chiqilgan “Maktablar xaqida umumiy qoidalar” (“Kridalar”) bo‘lib, uning matni “Buxoro axbori” sahifalarida tula xolicha e‘lon qilingan. Mazkur “K^oidalar”da BXSRda maorifni yo‘lga qo‘yishning umumiy vazifalari, maktab ma‘muriyatida boshqaruv, pedagog xodimlarga maosh tulash tartibi, maktabda fanlarning hamda ta’lim-tarbiyaning asosiy yo‘nalishlari qayd etil«si. Gazetaning keyingi sonlarida “Qoidalar” ustidagi kizgin munozara materiallari muttasil chop etib borilgan.

“Buxoro axbori”ning 1921 yil 22 fevraldagi 25-sonida “Maktab raxbarlari - “instruktorlar” uchun dasturilamal” chop etshgib, uning davomi ushbu gazetaning 1921 yil 1 may 34-sonida uz aksini toptan. Bu dasturda maktabda o‘quv jarayonini tashkil qilish, o‘quvchilarni maktabdan tashqari tadbirlarga jalb etish, axlokiy tarbiya berish, maktab muallimlari tashkilotini tuzish, o‘quvchilarni maktabda tekin ovqatlantirishni tashkil etish kabi masalalar 16 bandda qayd qilingan. Dastur matni gazetalarning qayd etilgan sonlarida tulaligicha keltirilgan.

Maorif nazorati boshlangich maktab o‘quvchilari uchun “Alifbo” kitobini yozish buyicha taylov e‘lon qiladi. Ushbu tanlov shartlari Xam “Buxoro axbori”da berilgan edi. YOzilajak “Alifbo” o‘zbek tilida bo‘lishi, xarflar isloh qilingan arab imlosida yozilishi, ta’limiy-tarbiyaviy axamiyatga ega bo‘lishi, yot gillardagi suzlardan xoliligi shart qilib kuyilgan. Namunali deb tanilgan “Alifbo” kitobi

¹ Ражабов Қ., Рахмонов К “Бухоро ахбори” ва “Озод Бухоро” газеталарида маориф масаласининг ёритилиши // Ўзбекистон тарихи ва маданияти (Республика илмий-амалий анжумани материаллари). Тошкент -2011. - Б. 154-160.

mualliflariga 500 ming sum miqdorida mukofot xam ta'sis etilganligi e'loni gazetadan o'rin olgan.

Maorif nazorati tomonidan 1922—1924 yillarda maorif sohasinipg turli kirralarini qamrab olgan va takomillash girishga qaratilgan buyruqdar ketma-ket chikib to'rganliti, maorif qurultoylarini uyushtirish va utkazish bilan bog'liq tadbirlar, maorifni moddiy jixtdan ta'minlashga ajratilgan mablag'lar, maorif ikki xaftaliklari, butun Buxoro muallimlarining seminar-kengashlari, ularda ko'rilgan masalalar, maktab islohotidagi o'zgarishlarni BXSR matbuoti batafsil yoritib borgan.

Gazetalarda chop etilgan turli Ma'lumotlarda o'quv yilining respublika hududida 1 oktyabrdan boshlanishi va o'quv jarayonlarining keyingi yil iyun oyi boshlariga qadar davom etishi, maorif nazorati xisobida ochilayotgan yangi maktablar, ularni moddiy jihatdan ta'minlash, xomiy tashkilotlardan maktablarga berilgan moddiy yordamning miqdori aniq raqamlarda ifodalanadi.

“Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalari BXSRda maorif va uning umumiy axdoli, o'ziga xos tomonlari, murakkab va ziddiyatli jixatlari, bu yo'nalishdagi foydalanilmagan imkoniyatlar, yutuk va kamchiliklar to'g'risidagi ma'lumotlarni manbaviy jihatdan boyitadi.

BXSRda 1920 yilning oxiri va 1921 yil boshlarida maorif tizimini yo'lga qo'yish maqsadida turli shakldagi ta'lim muassasalari ochilgan. “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalaridagi ma'lumotlarga tayanib, respublikada faoliyat boshlagan mazkur muassasalarni bir necha tarmoqdarga ajratish mumkin: poytaxt Buxoro shahri va viloyatlarida ibtidoiy (boshlangich) va umumiy ta'lim beradigan maktablar, namuna makgablari, xotin-qizlar maktablari, xunar maktablari, musika, duxovoy orkestr maktablari, u staxona maktablari, siyosiy maktablar, rus gili maktablari, dorilmuallimin (ukituvchilar bilim yurti), xotin-qizlardan muallimalar etishtirish uchun 6 oylik ta'lim- tarbiya kurslari, diniy ta'lim beradigan eski usul maktablari, shu sohada oliy ta'lim beruvchi mullavachchalar tayyorlaydigan dorulilm, savodsizlikni tugatish maktablari, kechki kurslar va boshqalar.

Buxoro viloyati maorif shu'bası tomonidan 1921 yilning yanvarida Eski Buxoroda 5 ta maktab, butun viloyat buyicha 15 ta maktab, 1 ta xotin-qizlar maktabi, 1 ta xunar maktabi mavjudligi xabar qilinadi. 1922 yilda shu kabi maktablarni 80 tagacha etkazish rejasi qayd qilingan. Ayni shu davrda 5 joyda kechki kurslar xam faoliyat olib borib, ulardan bittasida fors, turk, rus, nemis tillarida ta'lim berilib, 120 kishi taxsil olgan ekan.

Gazetalarda keltirilishicha, "Buxoroning uzida 1921 yilning yozida 17 ta ibtidoiy (boshlangich) maktablar, 2 ta qizlar maktabi, 3 ta etimxona, 1 ta xunar maktabi, 1 ta ustaxona, 1 ta musika maktabi, 1 ta siyosiy maktab mavjud bo'lgan". BXSR hududida boshlangich va umumta'lim maktablari soni 1925-1922 o'quv yilida quyidagicha bo'lgan: "CHorjuyda 6 ta ibtidoiy maktab, butun viloyat maktablar soni 9 ta; Kdrshida viloyat buyicha 12 ta; 7 tasi Qarshi shahrinda; Karki viloyatida 3 ta maktab; Vobkantda 10 ta maktab; Gijduvonda 8 ta maktab; Karmana viloyatida 15 ta maktab; YAngi CHorjuyda 3 oylik ta'lim-tarbiya kurslari; CHorjuy, Karmana, Xatirchi shaxarlarida etimxonalar bor"¹.

Maktablar oldida kechki savod kurslari ochilib, shu yo'l bilan savodsizlikka qarshi kurash boshlangan. Matbuot ma'lumotlaridan ayon bo'ladiki, "savodsizlikni bitirish uchun kurash" harakati respublikada 1922—1923 o'quv yili davrida avj olgan. Bu xdkda gazetaning 1922 yil oktyabr-dekabr sonlarida o'nlab xabarlar "Savodsizlik bilan kurash" rukni ostida e'lon qilingan. Xar bir viloyatda 1-2 ta savodsizlikni bitirish kursi ochilgan. Katta yoshli kishilarga 3 oy davomida o'qish va yozishni urgatish vazifasi dolzarb qilib kuyilgan. "Ozod Buxoro"ning ma'lumoticha, savodsizlikni bitirish kurslarida ona tili fani xaftasiga 6 soat, xisob 6 soat, jugrofiya, tarix, tabiat, rus tili, siyosiy savod fanlari 1 soatdan ukitilayotganligi ayon bo'ladi.

Gazetada 1923-1924 o'quv yilida butun respublikada 70 000 o'quvchi taxsil olayotganligi, 20 ta xat-savod urgatish kurslari yangidan ochilganligi xabar

¹ Рахмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920-1924 йиллар)- Т.: "Abu Matbuot-Konsalt" 2012. Б. 93-94.

qilingan. Xat-savod kurslarining soni respublika oxirgi yiliga kelib 51 taga etgan, faqatgina 34 maktabdagi 1626 o'quvchi soni aniqlidigi, qolganlari esa ma'lum emasligi xam yozilgan. Birok savodsizlikni bitirish kurslari uz oldilariga kuygan vazifaning atigi 26 foizini bajarganligi bilan bog'liq kamchilik alohida qayd qilingan. Xat-savod maktablari respublikada istiqomat qilayotgan rus, Buxoro yaxudiylari va 5oshk,a millat vakillarini ukitish uchun xam ochilganligidan vokif eulinadi.

Xat-savod urgatish maktablarini turli tillardagi darsliklar Silan ta'minlash maqsadida Turkiston ASSR, RSFSR, Tatariston LSSR, Ozarboyjon va Turkiyadan rus, turk, tatar, o'zbek tilidagi zdabiyotlar keltirilgan. Gazetalar ma'lumoticha, 1921 yilda xat- ;avod urgatish maktablariga 2000 ta kitob, 1924 yil yozida esa Gurkiston ASSRdan 15 000 dan ortik kitob keltirildi. Bu gadbirlarni amalga oshirish uchun davlat byudjetidan kattamiqdorda mablag' ajratildi. Matbuot ma'lumotlarini arxiv xujjatlari xam gasdikdaydi. Masalan, 1922-23 o'quv yilida davlat byudjetidan maorif ishlari uchun 5,6%, 1923-24 o'quv yilida esa 21% mablag' ajratilgan.

Respublikaning oxirgi yilida xam savodsizlik bilan kurash masalasi kundalang bo'lib turdi. Usha davrda bu jabxadagi umumiy xdyaatni "Ozod Buxoro" gazetasi bir necha maqola va xabarlar orqali izoxdashga o'ringan. Ayniqsa, A. Boymatovning gazetada chop etilgan "Xat-savodsizlik bilan kurash jabxasida" nomli salmoqdi maqolasi kengrok ma'lumot beradi. Jumladan, maqolada yozilishicha: "Xar bir maktab xuzuridakurs bulmokkategish topildi. Bu kurslarda 2 nafar muallim, 1 nafar mudir, 50 nafar tal aba bo'lishi lozimligi belgilongon. Vobkent, Gijduvon, Korakul tumanlarida, Kogon, CHorjuy, Karmana, Qarshi, SHerobod, Fuzor, Karki kabi shaxarlarda 1 tadan xat-savod maktabi borligi aytili. Xar oy Buxoroda 840 sum, viloyatlarda 120 sum harajat kilinayotgan ekan. XaR maktab 10 s'ym 40 tiyin olib, 13 sum 20 tiyinga tushadur. Barcha smeta 21 639 sumdur (SHarqiy Buxoro qirg'izilmagan). Rarbiy Buxoroda erkaklar 560 000 nafar; xotunlar xam 560 000 nafar savodsizxisobgaolingon.

Muallimni 3 nafar qilib, talabalar sonini 75 nafar qilish kerak. Bu maktablarga ibtidoiy maktab ukituvchilarini jalb qilib, 25% ziyod (60 sum) oylik berish kerak. Ukitgonlari uchun soatlab 80 tiyin berishga qarorlar berish kerak”.

1921-1922 o'quv yilidan boshlab Buxoro shahrida birinchi dorulmuallimin (ukituvchilar bilim yurti) ochilgan. Dorulmualliminda o'qish muddati 2 yillik bo'lib, “axzori” - sirtki bulim xam mavjud edi. Dorulmuallimin tayyorlov bulimiga qabul qilinadigan o'quvchi-talabalar yoshi 15 dan kam, 22 yoshdan katta bo'lmasligi shart qilib kuyilgan. “Dorulmualliminning ochilishi ilm va maorif yo'lida birinchi odimdir. Buxoroning istiqboli va saodati uchun dorulmualliminning yashamogi lozimdur. Bungahukumat axamiyat berib, buning yashamogini ta'min etish kerakdur”, - deb yoziladi “Buxoro axbori” gazetasida. Dorulmualliminda taxsil olish uchun BXSRning 10 ta viloyatidan yoshlar to'plangan.

1921-1922 o'quv yilida YAngi CHorjuy shahrida ikkinchi dorulmuallimin xam ish boshlaydi. “YAngi CHorjuyda sobiq amir Hukumati tarafidan solingon “Nikolay” gimnaziyasi (Rossiya podshosi Nikolay II nomi bilan atalgan) o'quv yurti binosida utgan sana (1921 yil) dorulmuallimin ish boshlagon edi. Bunga maorif nazorati tomonidan “Fayzullo Xuja” ismi berilib, ochilish marosimida hukumat boshlikdari katnashdi”, - deyiladi xabarlarda.

“Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarida umumta'lim maktablari, xotin-qizlar maktabi hamda dorulmualliminlarda imtixon olish tartibi, imtixonon utgan o'quvchi va talabalarni rag'batlantirish bilan bog'liq maqola va xabarlar xam talaygina. Imtixonlar respublika viloyatlarida odatda 15 iyundan keyin qabul qilingan. Xat-savod kurslarida may oyining birinchi un kunligida imtixon olinib, kurslarni bitnrganlarga guvodnoma berilgan. Gazetalardagi imtixonlar bilan bog'liq ma'lumotlarni tahlil qilish orqali shunday xulosaga kelish mumkinki, umumta'lim maktablarida sinfdan-sinfga utkazish payti hamda dorulmualliminlardabitirishimtixonlarinitopshiraolmaganlar qayta o'qish uchun yuborilgan. Imtixonlarda ishtirok qilish uchun ota-onalar xam taklif qilingan.

Imtixonlardan muvaffakiyatli, YUqori baxo bilan utgan o'quvchi va talabalar takdirlangan¹.

O'quv muassasalarini pedagog mutaxassislar bilan ta'minlash muammosi hamda turli kategoriyadagi ukituvchilarning moddiy ahvoli, saviyasi ularning zamon talablariga javob berishi bilan bog'liq ekanligi xaqidagi xabarlarning gazetalarda keltirilishi xam axamiyatga egadir. Bir qator maqola va xabarlar ukituvchilar moddiy sharoigi bilan bog'liq ayanchli ma'lumotlarni keltiradi. Bunday kamchiliklar, avvalo, ukituvchilar dare berayotgan binolar talabga mutlako javob bermasligi, ularning tegishli kurgazmali qurollar, o'quv asboblari bilan ta'minlanmaganligi, maktab va maorif muassasalari ayrim sobiq amir davri amaldorlarining uylarida joylashganligi, ya'ni torligi, ikkinchndan, ukituvchilarga tulanadigan maoshlarning oz miqdori bilan bog'liqdir.

O'quv dargoxlariga qo'shni respublikalardan (Tatarieton, Boshkirdiston, Turkiston ASSR) pedagog muallimlar ishlash uchun taklif qilingan². BirokBXSR maorif tizimida faoliyat ko'rsatgan ushbu vakillar nokulay tabiiy sharoit, moddiy ahvolning ogirliqi, maoshlarning uz vaqtida berilmasligi, ayniqsa, respublikaning chekka viloyatlarida ularga nisbatan shaxsiy ximoyaping yukpigi kabi sabablar tufayli uz vatanlariga kaytib ketishgan. Bu xdkda gazetalardan tegishli ma'lumotlar olish mumkin.

¹ Ражабов Қ., Раҳмонов К “Бухоро ахбори” ва “Озод Бухоро” газеталарида маориф масаласининг ёритилиши // Ўзбекистон тарихи ва маданияти (Республика илмий-амалий анжумани материаллари). Тошкент -2011. - Б. 154-160.

² Хайитов Ш., Бадридинов С. Татар зиёлилари Бухорода // Жамият ва бошқарув. 2007. № 3. - Б. 125-126.

3.2. Matbuotda BXSРning madaniyati masalalarining yoritilishi

Respublikaning dastlabki yillaridanok madaniyat muassasalaridan teatr, kutubxona, kiroatxona, muzey, klub, choyxona, bolalar bogchasi tashkil etish bilan bogʻliq; amaliy vazifalar bajarilgan. Gazetalarning maʼlumoticha, madaniyat muassasalari xalq; maorifi nozirliги tasarrufiga berilib, ushbu nozirlik tomonidan qatʼiy nazorat ostiga olingan. BXSР viloyatlarida milliy teatr truppalari tashkil qilish, mavsumiy (kishki va yozgi) teatr binolari koʻrish masalasiga alohida eʼtibor qaratildi. Teatr sanʼatini yoʻlga qoʻyishning dastlabki tadbirlari xaqida “Buxoro axbori” gazetasi: “Buxoroda Xamza urtok Xakimzodaning loyixasi buyicha 40 kishilik kuchli bir truppa tuzishga qaror berildi. Truppaning yarmi yuradurgon va yarmi mukim, Buxoroda kolaturgon qilib tuzilgusidur... Buxoroda 3 yillik rasm maktabi ochmokka xam qaror berildi. Maktabga xar viloyatdan 5 nafardan jami 50 nafar talaba olinadur. Ular kuchidan foydalanib, teatr dekoratsiyasi yoʻlga qoʻyiladi”, - deb yozgan edi.

1921 yildayok respublikaning markazi Eski Buxoro va Karki shahrida teatr binosi koʻrilganligi, 1922 yildan boshlab Korakul, SHerobod, Karmana, CHorjuy, SHahrisabz, Kogonda xam teatr tomoshalari tashkil etilganligi “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarining sahifalarida bosilgan. Garchi malakali mutaxassis va artistlar etarli boʻlmasa-da, xavaskor truppalar tomonidan “Qizil kushin” (SHerobodda), “Qozikalon” (Korakulda), “Juvonboz kurboshi” (Karmanada) kabi pesalar muvaffakiyatli namoyish etilgan¹.

Teatr truppalari tashkil etish va ularga tegishli binolar koʻrish masalasida hukumat rahbarlarining bevosita ishtiroki, shaxsaы Fayzulla Xoʻjaev tashabbusi bilan CHorjuydagi “Lira” nomli teatr 1922-1923 yillarda 800 tomoshabin sigadigan bino sifatida koʻrilganligi qayd qilinadi. F. Xoʻjaev ushbu sanʼat inshootining ochilish marosimida shaxsan ishtirok etib, nutk suzlagan. Arxiv

¹ Ражабов Қ. XX аср бошларида Туркистон ёшлари. Уларнинг сиёсий фаолияти ва Шарқ мамлакатларидаги ёшлар ҳаракатлари билан узвий алоқалари // Ҳуқуқ ва бурч. 2000. №1. Б. 22

xujjatlaridan birining ma'lumoticha, mazkur teatr binosida spektakl tomoshalari bilan birga sirk, raem va kartina namoyishlarini utkazish imkoni mavjud bo'lgan.

1922 yilning baxorida "Azimjon" teatri (Buxoro shahri) da yongin chikib, odamlar teatr tomoshalariga katnamay kuyganlar. Xatto Eski Buxorodagi "Etimxon" teatri va Registon maydonidagi yozgi teatr tomoshalariga xam bormaganlar.

Gazetalarning ma'lumoticha, Buxoroda teatr san'atini rivojlantirish uchun rejissyor va aktyorlar, musika va dekoratsiya sohasidagi etuk xodimlarga katta extiyoj to'g'ilgan. Turkiston ASSRdan Buxoroga "Azimjon" teatri faoliyatini yo'lga qo'yish uchun taniqdi rejissyor Abdumannon Uygur taklif etiladi. Tarixiy xujjatlar 1921 yil 21 noyabrda BXSrdav davlat teatrining tuzilganligi va raxbarlik qilish uchun Toshkentdan mashxur rejissyor Mannon Uygur kelganligini xabar beradi¹. "Buxoro axbori" gazetasida esa: "Uygur urtok 1922 yil bax,oridan o'z yoniga bir miqdor yoshlarni yigib, eskilarini xam olib truppa yasadi. Uygur urtokni bir muncha asarlarni muvaffakiyatli suratda uynab utkarishi xalqimizni yana saxnaga (teatr tomoshasiga) tortdi. Kechalarimiz yana jon oldi", - mazmunidagi xabar bosilgan. Xullas, Uygur Buxoroda teatr rejissyori sifatida ish yuritgan qisqa davrda xalqning saxna asarlariga va teatr tomoshasiga qiziqishi biroz oshgan.

"Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" sahifalarida teatr san'ati sohasidagi kamchilik va foydalanilmagan imkoniyatlarni keskin tanqid tigi ostita oluvchi bir qator maqolalar chop etilgan.

Jumladan, "Buxoroda teatr va saxna ishlari" ("Sirli"), "Suigti suzim: urtok Kuchichzodaga javob" (CHO'lpon), "Saxna" ("Abu Varaja"), "Saxnamiz bolalar uyiii bo'lmasun" (Rafik), "Tomoshaxonalarimiz ahvoli" (Said Ahroriy) kabi yirik maqolalar teatr sohasi bilan bog'liq kamchiliklarni ochib tashlaydi. Ushbu maqolalar matni orqali ko'pgina pesalarda milliy axlokiy madaniyat mezonlari buzilganligi, o'zbek, turk, fors, arab, tatar, rus tillaridagi suzlar kushilib ketganligi, aktyorlarning ortikcha bachkana xatti- xdrakatlari, kobiliyatli san'atkorlarga

¹ История БНСР / Сборник документов (1920-1924). - Т.: Фан. 1976. - С. 432.

ikkinchi darajali rollar berilganligi, “Jur-jur”, “Balli baday”, “Man ulmisham”, “Bokir Xoji” kabi syujeti bush ishlangan saxna asarlarining qayta-qayta kuyilishi tanqid ostiga olingan.

S. Ahroriyning maqolasida: “Buxoroda qanday bo‘lsaxam ishsiz kolgon xar kishi artistdur. Pesalar turmushimizda kelishmogon kabi tillar xam aralash tildur... Pesalar na mavzu jihatdan, na axlok-ibrat jihatdan xech bir qimmatini yukdur... Xulosa saxnamiz bir ibratxona emas, balkim axloksizlikni amaliy suratda urgagadurgon bir safolotxona bo‘ldi”, - kabi fikrlar mavjud.

BXSR hukumati 1920 yilning oxiridanok maorif nazorati karamogida turli tillardagi adabiyotlar mavjud bo‘lgan davlat kutubxonasini tashkil qilish choralarini ko‘rgandi. 1921 yilning yoziga kelib Buxorodagi eng katta kutubxona Minorai Kalon yonidagi binolardan birida Abu Ali ibn Sino nomi bilan ochilganligi gazetada qayd qilinadi. Bu markaziy kutubxona bo‘lib, unda o‘zbek, tatar, turk, tojik, arab, rus, yaxudiy tillarida kup jildli kitoblar jamlangan. “Ozod Buxoro” gazetasi ma’lumoticha, 1924 yilga kelib mazkur kutubxonada o‘zbek, fors, tojik, turk va arab tillarida 43 000 jild, rus tilida 20 000 jild, yaxudiy tilida

1 800 jild kitob mavjud bo‘lgan. Matbuot nashrlari kutubxona va kiroatxonalarning kitob fondi, ularning donmiy o‘quvchilari, yangi ochilgan kiroatxona-kutubxonalar, ularga xoriydan olib kelingan kitoblar soni bilan bog‘liq ma’lumotlarni berib borgan. 1923-1924 yillarda Eski CHorjuy, Yangi CHorjuy, Karki, Termiz, K^arshi, Tuzor, Kitob, SHahrisabz, Karminada kutubxonalar bo‘lgan, Matbuot materiallaridan oydinlashadiki, kitob fondlarining kupchiligidagi kitoblar eski bo‘lib, yangi kitoblarga katta extiyoj seziladi. Qisqa xabarlar orqali Buxoro kutubxonalariga kitoblar hamda gazeta-jurnallar asosan Turkiston ASSR, Tatariston Respublikasi, Turkiya va Roseiyadan kelib to‘rganligidan vokif bo‘linadi. “ 1922 yilda BXSR hukumati binosida hukumat kiroatxonasi ochildi, bu kiroatxonada 350 kishi ukir edi, kup suralaturgon narsalar yangi kitob, gazeta va jurnallar bo‘lib, ular juda ozdur”. Maqolalardagi ma’lumotlar yordamida Buxorodagi markaziy kutubxonadan keyingi o‘rinda kitob fondlari jixatidan

CHorjuy va Karkidagi kutubxonalarning salmogi katta bo'lganligini bilib olish mumkin. BXSР mikyoeida kutubxonalarga extiyoj ortib borganligi uchun ular kitobxonlarni, o'quvchi va talabalarni zaruriy o'quv kullanmalari va dareliklar bilan tula ta'minlay olmasdi. Qo'shni respublikalardan gazeta va jurnallarning muntazam etkazib berilmasligi xam mavjud xolatni murakkablashtirgan.

Muzey xar bir xalq yoki millatning o'tmishidan avlodlarga xabar beruvchi ma'naviy xazinadir. "Buxoro axbori" gazetasining 1920 yil 17 sentyabrdagi 3-sonida BXSР Xalq Nozirlar SHurosining buyrug'i chop etilgan. Ushbu buyruqda: "Butun Buxoro mamlakatindagi eski va yangi kitoblar maorif nazoratiga topshiriladur... Xususiy kishilarda eski kitob va narsalar bo'lib, sotmakchi bo'lsalar chetga chiqarmasdan uz baxosida okchasini olsunlar va shul YUqoridagn yozuvlarga qarshi kelganlarga jazolar ila xukmga beriladur", - kabi satrlar mavjud. YUqoridagi buyruqdan kelib chikib, ulka madaniyatiga oid osori-atika va san'at asarlarini to'plash maqsadida Maorif nozirligi tarkibida "Tarixiy osori-atika shu'basi" tashkil qilinganligi matbuot orqali kengjamoatchilikka ma'lum qilindi. Kup utmay, 1920 yilning 20 dekabrida maorif nozirligining maxsus buyrug'i chikib, gazetada bosilgan ushbu buyruq matnida: "Agar Buxoroning ulka madaniyatiga oid osori-atika va san'at asboblari bo'lsa, maorif nayuratidagi tarixiy osori-atika shu'basiga keltirib topshirsunlar. Maorif nazorati xar asbobning qimmatiga karab pulini beradur. Bunday asbobning kuldан-kulga utub sotilib gorshtishi qat'iy mumkin emas! Chetga chiqarmak xam qat'iy mumkin emas", - deyilgan¹.

1922 yilning 8 noyabrida Sitorai Moxi Xosada muzey ochildi. Buxoroda faoliyat boshlagan birinchi muzeyning ochilishida hukumat raxbarlari xam ishtirok qilib, usha paytda Xalq Nozirlar SHurosi raisi vazifasini bajaruvchi AtoullaXuja: "Buxoroda bir muzaxona ochilishini kurmak ilk buyuk tilaklarimizdan biridur, Bu kun shu mukaddas tilagimizning vujudga chiqishini kurib juda xursand bo'ldik", -

¹ Ражабов К., Рахмонов К "Бухоро ахбори" ва "Озод Бухоро" газеталарида маориф масаласининг ёритилиши // Ўзбекистон тарихи ва маданияти (Республика илмий-амалий анжумани материаллари). Тошкент -2011. - Б. 154-160.

degan edi. Buxoro muzeyining ochilishi va u bilan bog‘liq marosim va tantanalar hamda muzeyga to‘plangan eksponatlar xaqida “Buxoro axbori” gazetasida yirik maqola bosilgan. Buxoroning birinchi muzeyiga “Kori Yo‘ldosh muzaxonasi” nomi berilgan. BXSR noyxtida muzey ochilganligi hukumat amalga oshirgan muhim, tadbirlardan biri bo‘lsa-da, gazetalarning keyingi bir qator xabarlariga kura viloyat va tumanlarda uning bulimlarini ochish ishlari ora yo‘lda qolib ketgan.

BXSRda axolini madaniy hayotta kengrok tortish uchun 1923— 1924 yillarda 5 ta klub, 10 ta qizil choyxona ochilgan edi. Qizil choyxona va klublar turli viloyat va tumanlarda xam ochilganligi gazeta xabarlaridan ma’lum bo‘ladi, “Ziyovuddin qo‘mitasi 800 mln. sum okcha sarflab, Ziyovuddin temir yo‘l stansiyasida choyxona ochishga qaror bergon... Karminada xam qizil choyxona va yonida kiroatxona ochilgon”. YAngi Buxoro (Kogon)da 1921 yildayok Poltoratskiy nomli klub ish boshlagan edi.

“Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalarining turli sonlarida YUqoridagi kabi qisqa xabarlar kup mivdorda e’lon qilingan bo‘lib, bundan hukumat tashviquot va targ‘ibot ishiga jiddiy munosabatda bo‘lganligini anglash mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetasi materiallari BXSRdagi maorif tizimi, ta’lim turlari, o’quv yurtlari va ularning faoliyati masalalari bilan bog‘liq boy ma’lumotlar beradi. Mazkur gazetalarning axamiyati shundaki, ularda chop etilgan maorif va madaniy muassasalarga tegishli ma’lumotlarni tahlil kilmasdan turib, BXSRning madaniyat tizimini va undagi muammolarni mukammal o‘rganishning iloji yuk.

XULOSA

Tarixning barcha bosqichlarida davriy matbuot uz zamonasining voqealarini xozirjavoblik bilan aks ettiruvchi kuzgu bo'lgan. XX asrning dastlabki un yilliklari Buxoroda siyosiy va ijtimoiy jarayonlarning keekin kechganligi, uzoq yillar davomida xukmronlik qilib kelgan amirlik tuzumining ag'darilishi bilan bog'liq muhim voqea bilan xarakterlanadi. Buxoro amirligining so'nggi yillarida jadidchilik harakatining kuchayishi natijasida ozodlik g'oyalarini targ'ib qilishning omshga bo'lgan matbuotchilik yuzaga keldi. Buxoroning dastlabki matbuoti sifatida "Buxoroyi sharif" va "Turon" gazetalar chop etildi. Ushbu gazetalar mahalliy matbuotchilikning keyingi tarakkiyotida muhim rol o'ynaganligi

e'tiborga loyivdir. Birok bu gazetalar qisqa muddatda chop atilib, BXSR hukumati o'rnatilganidan so'nggina matbuotchilik ishi uzluksiz davom zttirildi.

O'zbek tilida muntazam chop etilgan matbuot nashrlari hisoblangan "Buxoro axbori" va "Ozod Buxoro" gazetalar tarixiy manba bo'lib, ularda BXSRning dastlabki kunlaridanok ijtimoiy hayotda kechgan barcha jarayonlar imkon qadar yoritilgan. Mazkur matbuot organlarida hukumatning qaror va buyruqdari, hukumat tarkibi, davlat tomonidan amalgaoshirilayotgan chora-tadbirlarning e'lon qilib borilganligi 1920-1924 yillar garixini xronologik izchillikda o'rganishga yordam beradi. Gazeta taxririya faoliyati, nashriyot sohasidagi yutuk va muammolar xam mazkur matbuot organlarining bir necha maqolalarida bayon qilingan.

Ushbu gazetalar ularga Said Ahroriy, Abdulxamid CHo'lpon, Kori Yo'ldosh Po'latov muxarrirlik qilgan davrlarda ayniqsa ta'sirchan kuchga va ommaviy matbuot nashrlariga aylangan. YUqorida ism-shariflari zikr qilingan tarixiy shaxslarning matbuotchilik sohasidagi faoliyati ibratlidir.

BXSR iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi tarmog'i asosiy soha bo'lganligi va uning paxtachilik, korakulchilik, ipakchilik, g'allachilik yo'nalishlarida respublikada amalga oshirilgan tadbirlar, vazifalar, loyixalar, rejalargaoid materiallarsalmogi YUqori foizni tashkil qiladi. Gazetalaridagi ma'lumotlar

yordamida XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi kiyishok xo‘jaligi ahvoli o‘rganilib, BXSR qishloq xo‘jaligining rivoji amirlik davridagi darajasiga ko‘tarila olmaganligi isbotlandi. Bu esa sovet davrida yozilgan tadaikotlar kommunistok mafkuraga buysundirilganligi, BXSR tarixini yozishda nukul ijobiy dalil va raqamlarga murojaat qilinganlitdan kelib chiqqan. “Buxoro axbori” va “Ozod Buxoro” gazetalari uz sahifalarida BXSRda tovar-pul munosabatlarining ahvoli, soliq gizimi, narx-navo va uning To‘rt yil davomida o‘zgarib borishi, milliy sanoatga asos solish yo‘lidagya o‘rinish va harakatlarni berib borgan. Gazetalaridagi ma’lumotlar BXSR tarixini o‘rganishga xizmat qiladigan arxiv xujjatlari bilan kiyosiy tahlil qilinar ekan, kup jihatdan ularning mutanosibliigi kuzatildi. Matbuot materiallari orqali BXSRdagi ikgasodiy o‘zgarishlar bir necha tarixiy bosqichlardan utganligi, mustaqil iqtisodiet asoslarini yaratish yo‘lidagi o‘rinishlar, bu masalada “Markaz” kuchli tazyik utkazganligi ochib berildi.

Malakaviy bitiruv ishida matbuot ma’lumotlari asosida BXSRdagi siyosiy jarayonlar, ya’ni hukumatning. boshqaruv tizimidagi islohotlari, hukumat arboblari, boshqaruv organlari, ular tarkibi, turli yillarda egallab to‘rgan mansablari xaqidagi fikrlar xam yoritildi. BXSRda axolining soni, milliy tarkibi, ularning moddiy ahvoli, turmush darajasi, maishiy muammolari, yangicha o‘zgarishlarga munosabati matbuotda tauidiy ravishda bayon qilinganligi isbotlandi. Xalq salomatligi masalalari xavdda gazetalarda chop etilgan yiris maqolalar hamda turli xabardar esa BXSRdagi tibbiyot va uning xolatidan ma’lumot beradi. Atroflicha matbuot materiallari orqali harbiy sohadagi muammolar, milliy armiyani chuzish yo‘lidagi o‘rinishlar xaqida ba’zi xulosalarga kelindi. Ijtimoiy muammolarning eng muhim bugini hisoblangan xotin- qizlar xukuki va erkinliklari, maorif va ma’naviyat masalalari xam nazardan chetda kolmagan. Ta’kidlash joizki, gazegalarning eng salmoqdi maqola va xabarlari BXSRdagi maorif va madaniyat muammolariga qaratilgan. YAngicha, uz davri talablariga javob beradigan uch bosqichli: boshlangich, urta va oliy ta’limni yo‘lga qo‘yish, dunyoviy bilimlar beradigan ta’lim tizimini yaratish yo‘lida amalga

oshirilgan ishlar va istikbolda rejalashtirilgan vazifalar gazetalarda muntazam yoritilgan. Ayniqsa, 1920-1921 yillarda e'lon qilingan materiallar respublika maorif tizimini shakllantirish jarayoni, savodsizlikka qarshi kurash tadbirlari, madaniy okartuv muassasalari ochilishi xaqida tularok tasavvur beradi. BXSRdagi teatr, kutubxona, muzey, musika maktabi, klub, choyxona, kasalxona, dorixona, milliy bog, dam olish maskani kabi yangi tashkil qilingan muassasalar to'g'risida ko'plab ma'lumotlar mavjud. Mazkur ma'lumotlar orqali turli-tuman madaniy muassasalarga asos solinganligi bilan bog'liq sanalar, ular faoliyati yo'nalishlarining maqsad va vazifalari aniq daliliy raqamlarda berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Каримов И. Юксак маънавият — енгилмас куч. — Т.: Маънавият, 2008.
2. Каримов И. Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида. -Т.: Ўзбекистон, 2011.
3. Каримов И. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. - Тошкент: Шарқ,1998.
4. Абдурауф Фитрат. Бухорода инқилоб // Танланган асарлар. III жилд. - Тошкент: Маънавият, 2003.
5. Абдуазизова Н. Ўзбекистон журналистикаси тарихи (1870-2000) - Тошкент: Академия. 1999;
6. Айний С. Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар. - М.: СССР халқлари нашриёти, 1926;
7. Айний С. Қискача таржимаи холим // Айний С. Асарлар. 8 томлик. - Тошкент: Ўздавнашр, 1963. Т. 1 .
8. Алиев С. Чулпон наздида Бухоро // Бухоро ҳақиқати. 1997 йил 20 декабрь.
9. Алимова Д., Голованов А. Ўзбекистон мустабид совет тузуми даврида: сиёсий ва мафкуравий тазйиқ оқибатлари. 1917-1990 йиллар. - Т.: Ўзбекистон, 2000. - 70 б.
- 10.Алимова Д., Мустафоева П., Ражабов Қ. Тарихга мурожаат холисликни талаб этади // Ўзбекистон тарихи. - Т.: 2004. №3. -Б. 70-81.
- 11.Амонов У. “Бухоройи шариф” рўзномасини ўқиб... // Педагогик махорат. - Бухоро, 2007. №1. - Б. 50-51.
- 12.Васильева Е. “Озод Бухоро” ҳақида // Бухоро ҳақиқати. 1990 йил 26 апрель.
- 13.Дустқораев Б. Бухорода миллий матбуотнинг юзага келиши // Маърифат. 2008 йил 21, 25, 28 июнь.

- 14.Дустқораев Б. Ўзбекистон журналистикаси тарихи. (1870-1917 йил ноябрь). Дарслик. - Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009.
- 15.Дустқораев Б. Чулпон: газета - еттинчи давлат // Ўзбекистон адабиёти ва санъати. 2004 йил 22 октябрь.
- 16.Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар (1870-1927). - Тошкент-Самарқанд: Ўздавнашр, 1927. - 180 б. (Қайта нашри: Зиё Саид. Танланган асарлар. - Т.: Гафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974).
- 17.Иброҳимов И. Маърифат зиёси // ”20.000-учрашув”. “Бухоронома” газетаси 20.000-сони чикканига бағишланган публицистик рисола. - Бухоро, 2007.
- 18.Иноятов С. Роль печати в интернациональном воспитании трудящихся. - Ташкент: Фан, 1986;
- 19.Ишанов А. Создание Бухарской Народной Советской Республики (1920-1924 гг.). - Ташкент: Изд. АН УзССР, 1955;
- 20.История БНСР / Сборник документов (1920-1924). - Т.: Фан. 1976.
- 21.Каримов Р., Раджабов К. Политическая и экономическая ситуация в Бухарской Республике (1920-1924 гг.) // История Узбекистана (1917-1991 гг.). - Т.: Шарк, 2002. - С. 63-70.
- 22.Наимов Н. Бухоро жадидлари (тарихий очерклар). - Т.: Фан, 2000.
- 23.Очилов Н. Даврий матбуот // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Ж. 1 2 .- Т.: ЎзМЭ нашриёти. 2006.
- 24.Ражабов К., Бухоро Халқ Совет Республикаси //УзМЭ. 2- жилд. — Т., 2001.
- 25.Ражабов Қ. “Тарбияи атфол” // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Ж. 8. - Т.: ЎзМЭ нашриёти. 2004.

26. Ражабов Қ. XX аср бошларида Туркистон ёшлари. Уларнинг сиёсий фаолияти ва Шарқ мамлакатларидаги ёшлар ҳаракатлари билан узвий алоқалари // Ҳуқуқ ва бурч. 2000. №1.
27. Ражабов Қ., Раҳмонов К “Бухоро ахбори” ва “Озод Бухоро” газеталарида маориф масаласининг ёритилиши // Ўзбекистон тарихи ва маданияти (Республика илмий-амалий анжумани материаллари). Тошкент -2011. - Б. 154-160.
28. Рашидов У., Рашидова Л. Бухоро амирлигида жаҳидчилик ҳаракати ва унинг шаклланиш омиллари / Из истории культурного наследия Бухары. (10 выпуск). - Бухара: Бухара, 2006.
29. Раҳмонов К. “Бухоро ахбори” газетаси - Бухоро Республикаси матбуот органи // Жамият ва бошқарув. - Т., 2004. № 2. - Б. 44-46.
30. Раҳмонов К. Соғлиқни сақлаш муаммоларининг даврий матбуотдаги талқини // Жамият ва бошқарув. - Т., 2006. (Махсус сон.)-Б. 115-117.
31. Раҳмонов К, Ҳайитов Ж. Бухорода маҳаллий матбуотнинг вужудга келиши тарихидан (XX асрнинг биринчи чораги) // Бухоро давлат университети илмий ахбороти. - Бухоро, 2008. № 3 .-Б . 24-28.
32. Раҳмонов К. БХСРдаги қишлоқ хўжалиги муаммоларининг даврий матбуотда ёритилиши // Ўзбекистон тарихи ёш тадқиқотчиларнигоҳида (Ёш тарихчи олимларнинг илмий мақолалари тўплами). - Т.: “O‘ZBEKISTON” НМИУ, 2010. - Б. 53-57.
33. Раҳмонов К. Матбуотда дунё мамлакатларидаги ижтимоий- сиёсий муаммолар талқини // Бухоро давлат университети илмий ахбороти. - Бухоро, 2011. №1. - Б. 4-8.
34. Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920-1924 йиллар)- Т.:“Abu Matbuot-Konsalt” 2012.
35. Туркестан в начале XX века: к истории истоков национальной независимости/ Научный редактор Раджапова Р. - Ташкент: Шарқ, 2000.

36. Туркистон матбуоти тарихи (1870-1917). Тузувчи Н. Абдуазизова. - Т.: Академия. 2000.
37. Ходжаев Ф. К истории революции в Бухаре. - Ташкент: Узгиз, 1926;
38. Эргашев Б.Х. Идеология национально-освободительного движения в Бухарском эмирате. - Т.: Фан, 1990.
39. Эрназаров Т., Акбаров А. История печати Туркестана.-Ташкент: Укитувчи, 1976.
40. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 1-китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. - Тошкент: Шарқ, 2000;
41. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2-китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида / Илмий муҳаррир Жўраев М. - Тошкент: Шарқ, 2000.
42. Ўзбекистон тарихи солномаси / Тузувчи муаллифлар: Ражабов Қ., Ҳасанов Ф. - Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2007.
43. Қосимов Ф. Бухорода миллий демократии ҳаракатнинг ўзига хос хусусиятлари / Марказий Осиё XX аср бошларида: ислохотлар, янгиланиш ва тараккиёт учун кураш.-Т., 2001.
44. Ҳайитов Ш., Раҳмонов К. Бухоро Халк Республикаси ва Германия: ҳамкорликнинг тарихий лавҳалари (1920-1924 йиллар). -Т.: Фан, 2004.